

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**



URG‘ANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

MASHARIPOV XAMID GANJAEVICH

**5141500 “Milliy istiqlol g‘oyasi, huquq va ma‘naviyat asoslari ta‘limi”
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: ABDURAHMON JOMIYNING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY
G‘OYALARI**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. Nurullaeva.N

Urg‘anch 2013 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX

MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA‘LIMI

ABDURAHMON JOMIYNING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY G‘OYALARI

Bajaruvchi:
Rahbar

Masharipov Xamid
t.f.n. Nurullaeva.N

Urganch shahri- 2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Masharipov Xamidga Universitet rektorining «189T 1&»-sonli 25dekabr 2012 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qarorig'a binoan. t.f.n. Nurullaeva.N

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 6 ta parag'raf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____
_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgʻan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishningʻ rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2012 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2013 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2013 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013 yil mart
5.	I I-Bobgʻa oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013 yil aprel
6.	Ishningʻ xulosasini tayyorlash	2013 yil may
7.	Foydalanilgʻan adabiyotlar roʻyxatini tuzish	2013 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

t.f.n. Nurullaeva.N

Bajaruvchi talaba:

Masharipov Xamid

2013 yil «14» dekabr.

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi

(«8»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA RAHBARINING‘ MULOHAZALARI

Talaba: Masharipov Xamid

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Abdurahmon Jomiyning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalari.

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 60 sahifa

Tushuntirish qismi: 57 sahifa

Mavzuning‘ dolzarblig‘i: O‘rta asrlar musulmon SHarq olamining buyuk mutafakkirlari qatorida mintaqamiz adabiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o‘zining boy va bebaho adabiy-badiiy, falsafiy-ijtimoiy, diniy-irfoniy va ilmiy-nazariy merosi bilan alohida o‘rin tutgan, Movarounnahr va Xuroson zaminida yashab, fors-tojik va o‘zbek mumtoz adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir olim, shoir va Naqshbandiya tarihatining XII asrdagi yirik namoyandasi Mavlono Nuriddin Abulbarakot ibn Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Jomiy asarlari keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Hirotda markazlashgan madaniy muxitning eng ko‘zga ko‘ringan namoyandasi, ustoz rahnamo Jomiy qalamiga mansub bo‘lgan ijod namunalari ilm va tafakkurning barcha sohalariga oiddir. Ular lirik she‘riyat, epik asarlar, adabiyot nazariyasi, falsafa, tilshunoslik, musiqa, san‘atshunoslik, tasavvufga doir yuzga yaqin asarlardan iborat.

Abdurahmon Jomiy o‘zidan oldin o‘tgan donishmandlar ta’limotlarig‘a tayangan holda panteistik dunyoqarashni boyitdi, haqiqiy Borliq - Sof Nur va inson dunyosining, inson ruhiy va jismoniy ko‘rinishlarining‘ o‘zaro munosabati va birlig‘i haqidagi qarashlarni rivojlantirdi. Mutafakkir o‘z qobiliyatli kuchini - jismoniy va ruhiy birlik mutanosibligini buzuvchi qusurlarni fosh etishga haratdi, haqiqiy umuminsoniy qadriyat - ahloqiy-ruhiy kamolotga intilishga chaqirdi. SHu nuqtai nazardan mazkur mavzuni o‘rganish dolzarb himoyalanaadi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining‘ tavsifi: Masharipov Xamid barcha fanlarni to‘la o‘zlashtirib, ularni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Masharipov Xamid o‘zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O‘zining

mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning' ijobiy tomonlari. Ishga Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini ahamiyati aniq faqtlarda, foydalanilg'an xolda har tomonlama chuqur yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishg'a qo'yilg'an talablarning' bajarilishi darajasi. Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallarida amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

t.f.n. Nurullaeva. N

2013 yil «25» may

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TARIX FAKULTETINING “MILLIY G‘OYA,
MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIM YO‘NALISHINING” 403-GURUHI
TOLIBI MASHARIPOV XAMIDNING “ABDURAHMON JOMIYNING MA’NAVIY-
MA’RIFIY G‘OYALARI”**

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. Abdurahmon Jomiyning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalari.

Malakaviy ishning hajmi. 12 ming co‘zdan iborat.

Tushuntirish qismi varaqlar soni: 57 sahifadan iborat.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.

Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o‘rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi o‘z aksini topgan bo‘lib, to‘la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma’lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to‘la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko‘rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko‘rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta’lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishda

hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ UrDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi o'qituvchisi. G'ozieva U

2013 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigʻan boʻlimlar	Engʻ yuqori koʻrsatkich ball hisobida
1	BMI ningʻ “Kirish” qismida mavzuningʻ dolzarbligʻi, maqsad va vazifalarningʻ yoritilishi	10
2	Ishningʻ asosiy (tushuntirish) qisminingʻ Nizom talablarigʻa mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarningʻ mavjudligʻi	10
4	Ishni bajarishda mavzugʻa oid manbaalarningʻ tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagʻi ilovalarningʻ mavzu mazmunigʻa mosligʻi	10
6	Ishni bajarishda gʻrammatika qoidalarigʻa amal qilingʻanligʻi	5
7	Himoyagʻa ish mazmunini bayon qila bilgʻanligʻi. Savollargʻa berilgʻan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi boʻyicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda maʼruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilingʻanligʻi	10

Eslatma: har bir kafedraningʻ xususiyatlari eʼtiborgʻa olingʻan holda baholash mezonlarigʻa oʻzgʻartirishlar kiritish maqsadgʻa muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Masharipov Hamidning "Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «___» 2013 yil «___iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng' yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belg'ilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdag'i ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qiling'anligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____
 mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2013 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Masharipov Hamid.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari".

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: t.f.n. Nurullaeva.N.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «29» mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishg'a taqrizchi qilib G'ozieva U tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. T. Abdullaev

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5141500 ta'lim
bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani
dots. _____
“ ____ ” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Masharipov Hamid

1. Ishning mavzusi: “Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari”.
«25 dekabr 2012 yil universitet rektorining 189t 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

- a): O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2012. 11-13-betlar.
b) Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2005. – 48 b.
v) Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
g') Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
d) Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
e) Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-betlar.

4. Ishning maqsadi: Abdurahmon Jomiyning asrlarida ma'naviyat va ma'rifat masalalarini o'rganish va uni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

5. CHizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining‘ F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: G‘ozieva U

7. Ilmiy rahbar: Nurullaeva N.

BM Ibajaruvchitalaba: Masharipov Hamid

(F.I.SH.)

(imzo)

Kafedra mudiri: dots. O. Abdullaev

(F.I.SH.)

(imzo)

**MAVZU: ABDURAHMON JOMIYNING MA'NAVIY-MA'RIFIY
G'OYALARI
REJ A**

Kirish

**I-BOB. TEMURIYLAR DAVRIDAGI IJTIMOY HAYOTNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI HAMDA METODOLOGIK ASOSLARI**
.....

1.1. XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy, ma'naviy
hayot va Abdurahmon Jomiy.

1.2. Evropa olimlari tomonidan Abdurahmon Jomiyning ma'naviy merosini
o'rganilishi.....

1.3 Abdurahmon Jomiyning diniy-falsafiy g'oyalari.....

**II-BOB. ABDURAHMON JOMIY MEROSINING BUGUNGI KUN YOSHLAR
UCHUN
AHAMIYATI**.....
...

2.1. Abdurahmon Jomiyning gumonistik g'oyalari.....

2.2. Abdurahmon Jomiyning ilm va ijod to'g'risidagi qarashlari.....

2.3. Abdurahmon Jomiy merosini ta'lim-tarbiyaviy jarayoni qullash
uslubiyatlari.....

XULOSA.....

.....

ADABIYOTLAR RO'YHATI.....

K I R I S H.

Esingdami, sen tug'ilgan on?
Barcha xandon edi, sen esa giryon.
SHunday yashaginki, ketar chog'ingda,
Barcha giryon qolsin, sen borgin xandon...
(Jomiy)

Mavzuning dolzarbligi: O'rta asrlar musulmon Sharq olamining buyuk mutafakkirlari qatorida mintaqamiz adabiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o'zining boy va bebaho adabiy-badiiy, falsafiy-ijtimoiy, diniy-irfoniy va ilmiy-nazariy merosi bilan alohida o'rin tutgan, Movarounnahr va Xuroson zaminida yashab, fors-tojik va o'zbek mumtoz adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir olim, shoir va Naqshbandiya tarihatining XV asrdagi yirik namoyandasi Mavlono Nuriddin Abulbarakot ibn Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Jomiy asarlari keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Hirotda markazlashgan madaniy muxitning eng ko'zga ko'ringan namoyandasi, ustoz rahnamo Jomiy qalamiga mansub bo'lgan ijod namunalari ilm va tafakkurning barcha sohalariga oiddir. Ular lirik she'riyat, epik asarlar, adabiyot nazariyasi, falsafa, tilshunoslik, musiqa, san'atshunoslik, tasavvufga doir yuzga yaqin asarlardan iborat.

Abdurahmon Jomiy o'zidan oldin o'tgan donishmandlar ta'limotlariga tayangan holda panteistik dunyoqarashni boyitdi, haqiqiy Borliq - Sof Nur va inson dunyosining, inson ruhiy va jismoniy ko'rinishlarining o'zaro munosabati va birligi haqidagi qarashlarni rivojlantirdi. Mutafakkir o'z qobiliyatli kuchini - jismoniy va ruhiy birlik mutanosibligini buzuvchi qusurlarni fosh etishga haratdi, haqiqiy umuminsoniy qadriyat - ahloqiy-ruhiy kamolotga intilishga chaqirdi. Uning g'oyaviy-nazariy, falsafiy mavqei ma'lum darajada qadimgi Osiyo, Chin, Hindiston hamda harbiy Yevropa ta'sirini, ayniqsa, qadimgi Yunon falsafiy madaniyati - Suhrot, Aflotun va ular izdoshlarining ta'sirini o'zida mujassamlashtirgan.

Mutafakkir ijodida "muhabbat" tushunchasi alohida o'rin egallaydi. Bu tushuncha nazm uchun an'anaviydir. Ilohiy muhabbatning asli - haq-taolodir.

Ana shu oliy muhabbatni kuylashga Jomiy ijodida keng o`rin berilgan. Shu bilan birga uning baytlarida insonlar orasidagi muhabbat ham kuylanadi. Insoniy muhabbat, unda go`zallikning hosiylati kabi muammolar "haft avrang" tarkibiga kiruvchi "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol" kabi dostonlarda chuqur tahlil etiladi.

Adibning ijodida "do`stlik" tushunchasi ham alohida ahamiyatga ega. Agar "muhabbat" faqat Allohga birlashish yo`ligina emas, balki hayotning amaliy qoidasi bo`lsa, do`stlik esa odamlar orasidagi insoniy munosabatlarning hayotiy hidoyatchisidir. Allomaning fikricha, inson baxt nima ekanligini anglashi va o`zgalarga ham hayotini oqilona tashkil eta olishga majbur va qodirdir.

Jomiy - temuriylar davri madaniy uyg`onish-renessansining doimo barhayot, porloq siymolaridandir. U yaratgan asarlar Respublika kutubxonalarimiz katalog va kartotekalarida o`z aksini topgan.

Ajdodlarimiz e`zozlab kelgan, asrlar qa`ridan olib o`tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasixatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko`zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo`ldi, e`tibordan chetda bo`ldi. Bu esa yosh avlodning ma`naviyatiga salbiy ta`sir o`tkazdi. Vaholanki, Islom Karimov «YUksak ma`naviyat-engilmas kuch» kitobida ta`kidlagandiki «...o`tmishdagi allomalarning bebaho merosi ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta`sir ko`rsatmoqda»<sup>1</sup>. Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo`lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o`z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV-asrdagi yirik arbobi sifatida o`z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Uning "Lujjatul-asror" ("Sirlar dengizi", 1475), "Ashiat ul-lamoat" ("Yiltillagan nur", 1476) diniy-falsafiy qasidasi Ibn Sinoga bag`ishlangan. Dostonlarida xalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan 7 dostondan iborat "haft avrang" ("Etti taxt" yoki "Katta ayih", 1480-1487) dagi "Silsilat uz-zahab" ("Oltin zanjir", 1472), "Tuhfat ul-ahror" ("Nuroniylar tuhfas", 1481-82), "Sibhat ul-abror" ("Tahvodorlar tasbehi", 1482-83) dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ`ib qilgan, kishilarni ma`rifatga,

¹ Karimov . I. A. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch.T.: Ma`naviyat, 2008.- 12- bet.

yurtparvarlikka, to'g'rilik, insof va iymonga chaqirgan. "Yusuf va Zulayho" (1483), "Layli va Majnun" (1484), "Solomon va Absol" (1469-80) dostonlari ishqiyl mavzuda. "Xiradnomai Iskandariy" dostoni (485) Nizomiylning "Iskandarnoma" siga tahlidan yozilgan. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy Jomiyning "Yusuf va Zulayho" sini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jomiy merosi ko'pdan beri faylasuf tarixchi, adabiyotshunos, dinshunos, madaniyatshunos pedagoglarning diqqatini o'zida jalb etib keladi. Bir necha olimlarimiz va adiblarimiz tomonidan Navoiy merosi tadqiq etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy², Bertels E. E³, Abdullaev A⁴, Abdulqodirov A⁵, Aliqulov Q., Omonboeva R⁶, Vohidov R⁷, Isaev A⁸, Norqulov N⁹, Xayitov Sh¹⁰, Xuseynova A.¹¹ lar Jomiy merosini o'rganib, bir necha muhim tamonlarini tahlil qilganlar.

Mavzuni yoritishdan asosiy maqsad va vazifalar. Abdurahmon Jomiyning asrlarida ma'naviyat va ma'rifat masalalarini o'rganish va uni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Abdurahmon Jomiy merosini ta'lim-tarbiyaviy jarayoni qullash uslubiyatlari mavzuning ob'ekti hisoblanadi.

Mavzuning maqsadidan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar belgilandi.

1. XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy, ma'naviy hayot va Abdurahmon Jomiy merosini o'rganish va umumlashtirish.

² Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOZuvchi» nashriyoti, 1991.

³ Bertels E. E. Izbrannme trudm Navoiy, Djami. «Nauka», Moskva, 1960

⁴ Abdullaev A. Ilohiy do'stlik: (Navoiy va Jomiy) G'Muloqot.-2003.-№3.-B.37-40.

⁵ Abdulqodirov A. Tavhid-kamolot manzili: [Jomiy va Navoiy tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligi haqida] G'G'Guliston.-1998.-№2.-B.60.

⁶ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

⁷ Vohidov R. Besh hayrat: Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning ilk uchrashuvlariga doir ayrim qaydlar G'G'Jamiat va boshqaruv.-1998.-№3.-B.50-52.

⁸ Isaev A. Abdurahmon Jomiy va musiqa G'G'Xalq ta'limi.-1996.-№3.-B.81-82.

⁹ Norqulov N. Abdurahmon Jomiy: 28-dars G'G'Ma'rifat.-1996.-18 may.

¹⁰ Xayitov Sh. Ma'rifat nuri: A.Navoiy talqinida A.Jomiy G'G'Imom al-Buxoriy saboqlari.-2003.-№2-3.-B.107.

¹¹ Xuseynova A. Inson borlig'ining oliy mazmuni: Abdurahmon Jomiy tavalludining 580 yilligi G'G'O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-1994.-25 noyab.

2. Evropa olimlari tomonidan Abdurahmon Jomiyning ma'naviy merosini o'rganish va tahlil etish.

3. Abdurahmon Jomiyning diniy-falsafiy g'oyalarini aniqlash.

4. Abdurahmon Jomiyning ilm va ijod to'g'risidagi qarashlari o'rganish va umumlashtirish.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni olish va sinf hamda darsdan tashqari jarayonlarda ularni turli tadbirlarda komil insonni ma'naviyatini shakllantirishda va ma'rifatini rivojlantirishda ular tasavvurini ma'naviy merosimiz, milliy madaniyatimizga oid qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi.

Bitiruv malakaviy ish "Kirish", ikkita bob, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, "Xulosa" hamda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Matnning umumiy hajmi 60 betni tashkil etadi.

I-BOB. TEMURIYLAR DAVRIDAGI IJTIMOIIY HAYOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy, ma'naviy hayot va Abdurahmon Jomiy.

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tidda ijod qiluvchilarning ham, forsiy qalam tebratuvchilarning ham barobar va faol qatnasha olgani edi. Buni biz Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida yaqqol ko'ramiz. Unda ijodkorlar til xususiyatlariga qarab bir-biridan ajratilmagan.

Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to'xtalar ekan, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da: "SHuarodin bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi"¹², — deb yozadi. Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o'zbek adabiyotining gullab-yashnashida ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo'lgan. Abdurahmon Jomiy SHohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan.

Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'lga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqtdan boshlab o'z tavallud topgan shahri nomini o'ziga adabiy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. SHarqdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'lishi ma'qul ko'rilgan). U asosiy umrini Hirotida o'tkazdi va shu erda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib etishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehning o'tkirligi bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotga ko'chishi, otasining bu erda shayx ul-islom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Hirotida uning o'qishiga Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, SHahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur mualliflar o'z hissalarini qo'shdilar. Natijada u

¹² Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih. -S. 21-34.

arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta va o'zlashtira boshladi. Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoyasiga etkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqhshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullaysdan ham ko'p dars olgan.

Hirotda Jomiy tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi. YOsh Jomiy SHayx Sa'daddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi¹³.

1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'ltiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1476-77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiy o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqea bo'ldi.

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. SHunint uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi hayriyalar, shu jumladan Hirotda ikki madrasa va xonaqoh, tutilgan shahari — Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning SHamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib etishgani ma'lum.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisatardan biri Navoiy —Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqeida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning "Nafahot ul-uns", Lujjat ul-asror", Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risolai muammo" kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy

¹³ Juzjoni A. SH. Tasavvuf va inson. –T.: «Adolat», 2001. –B. 25.

maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-ishq", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot" deb nom qo'yadi. 1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. SHarq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi.

"YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy sujetlarning yangicha talqinlarini berdi. Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan. Abduraxmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimshgi Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unga atab ko'pgina shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Iloxiy sirlar kashfi") degan so'zlardan (hijriy 898, melodiyl 1492 yil) chiqarilgan edi¹⁴. Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atnint rang-barang so-halariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton YA'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan.

Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu

¹⁴ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy. -S. 175.

Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarlarining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin. Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovro'po mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos E. E. Bertels "Jomiy" monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kullieti (O'zR FA Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi. Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va SHarq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufnint XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "SHavohidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "SHarhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi"), "Naqdi nusus" ("Matnni tanqid"), "SHarhi qasidayi "Xamriya" ("Xamriya" qasidasi sharhi"), "Naqshbavdiy ta'limoti haqida risola", "Vohid" atamasi haqida risola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin. Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatvda Bahovuddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" tariqatiga mansub deb hisoblasa-da, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi¹⁵. U o'zining "Lujjatul-asror" qasvdasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh egib, quyidagi satrlarni bitgan edi:

Tome'oya az bahri gu'ma peshi har xas sar nihad,

Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast¹⁶.

Mazmuni:

¹⁵ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih. -S. 21-34.

¹⁶ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih, -S. 28.

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga quyishga tayyor,

Qanoatchilar esa mamlakat shohi va vaziri ustidan ham kula oladi. SHoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

Mardi kosib kaz mashaqqat mekunad kafro durusht,

Bahri yaohamvoriyai nafsi dag'al hongar ast.

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi, Bu qo'ddagi dag'al esa nafs g'idir-budurini tekislovchi randadir. Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. SHe'riy asarla-rida esa u Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. SHu bilan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan¹⁷. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir. Jomiy "Nafahot ul-uns" asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi. Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi sag'ir", Risolayi muammoyi mutavvassit", "Risolayi muammoyi manzum", "SHarhi bayti Masnaviy, "SHarhi bayti Xusrav", "SHarhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari SHarq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta nazariy qo'llanma yaratgani yoki ulug' salaflari asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat berganini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishmandi bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma

¹⁷ Juzjoniy A. SH. Tasavvuf va inson. –T.: «Adolat», 2001. –B. 25.

yozgan. Arab tilini esa o'z ona tilidek bilgan edi. U vaqtda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175— 1249) "Al-Qofiya" kitobi bo'yicha o'rganilardi. SHoirning suyuqli farzandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'iicha o'qir ekan, darsni o'zlashtirishda katta qiyinchilik sezadi. SHunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492 yili, ya'ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi. SHundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiy "SHarhi" esa "SHarhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozonadi. Uning aruz bilan bir qatorda muzika nazariyasi haqida "Risolayi musiqiy" asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo'ldi¹⁸. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jidllik "Muzika haqida katta kitob" asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va noohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi.

Musiqqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'na-viy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandir¹⁹. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning haetini bezashi zarur. XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. SHayx Sa'diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to'plamini g'oyat sevgan va uni "jannatdan nishon, xashak-tikoni ham an bargadir jon" deb ta'riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi. Jamiyatdagi turli tabaqalar hayotidan, tarixdan hikoya qiluvchi bu to'plamda biz janr e'tibori bilan engil, yozilish uslubi o'zgacha, tili xalqchil, sujeti sodda ko'p hikoyalarni o'qishimiz mumkin. Har bir hikoya katta tarbiyaviy ahamiyat-ga ega. Masalan, quyidagi hikoyani Iskandarning murakkab bir savolga g'oyat oqilona javob berganini va do'stlik, insoniylik g'oyalarini ulug'laganini ko'ramiz²⁰: "Iskandardan: — Sen shunday yoshlik va navqironlik chog'ingda qanday qilib bu davlatu

¹⁸ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih, -S. 28.

¹⁹ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy. -S. 175.

²⁰ Annemarie SHimmel. Jonon mening jonimda. – T.: "SHarq" , 1999. – B.36.

saltanatga erisha odding? — deb so'raganlarida, u shunday javob beribdi: — Men dushmanlarimga xushmuomala bo'ldim, toki adovat jilovi yig'ilib jonlansin; do'stlarga sadoqatda bo'ldim, toki do'stlik mustahkamlansin". "Bahoriston"ning 7-ravzasi adabiy tazkira xarakterida bo'lib, unda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy, SHayx Sa'diy, Hofiz SHeroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur fors-tojik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor. Lekin Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, unint she'riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turlarini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirik she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi. Navoiy: Jomiyning yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergan bo'lsada, "ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas ekandurlar", — deb yozadi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiy, mazmuni, Allohni tanish, biligd bilan bol iq haqiqatni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi. Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p SHarq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtirolari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no bergan. Jomiy she'riy merosinint yirik tadqiqotchisi A Afsaxzod ham bu to'g'rida: "Jomiydagi so'fiyona kayfiyat uning ijodiy yo'li-ni eng ibtidosidan boshlangan edi"²¹, — deb yozganda to'la haq edi. Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan. SHoir she'riyatidagi pand-nasihati ruhida she'rlar kishilarni ezgulikka, halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Alloh tomonidan berilgan umrni yaxshi ishlari bilan yashab o'tkazishga da'vat etadi. U o'z ruboiylarining birida yozadi: Bo'laylik dil xasta ham siynalar chok, Hayotda doimo pok bo'laylik, pok. Xokistar bo'laylik ishning boshidan,

CHunki oxiri ham xok bo'lurmiz, xok. Rang-barang hayotiy mavzularda yarattan

²¹ Annemarie SHimmel. Jonon mening jonimda. — T.: "SHarq", 1999. — B.36.

badiiy yuksak va serjilo she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyitgan Jomiy, Sa'diy SHeroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz SHeroziy kabi so'z san'atkorlari safidan munosib o'rin oldi. Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, gyaubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy forstojik adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa"laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muammolarga o'z munosabatini bildirishga harakat qilganki, masnaviyda, oldingi "Xamsa" dostonlari vaznida yaratilgan bu dostonlar Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan qolishmasligini ta'kidlab, Alisher Navoiy quyidagi baytlarni yozgan edi: G'azal dardu so'ziyai, vah-vah, ne dey! Desa masnaviy, allah-allah, ne dey! Agar nazmdin borchu usdub anta, Bori bir-biridin erur xo'b anga, Vale masnaviy o'zga olam durur, Kn ta'biga holo musaddam durur. Bo'lub jilvagar tab'i ko'zgusida, Ki sabt ayladi "Xamsa" o'trusida, Erur andin ortuqkya, o'ksuk emas, El andin der ortuqki, o'ksuk demas! Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulmni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Buni u ayniqsa shohlar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi. Jomiyning "YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonlarida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rin tutadi. "Layli va Majnun"yugag kirish qismida do'stlikni, muhabbatni ulutlab shoir yozadi: Umid xazinasin kaliti yordir, Hayotint u birla shod, baxtiyordir. Vujuding maqsudi nedir g'ayri yor? YOrsiz bu savdoning ne keragi bor? Vujuding topguncha butkul inqiroz, Biror qush etolmas yor kabi parvoz.

Xuddi shu satrlar davomida Jomiy do'stlikka misol tarzida bir umrlik qadrdon do'sti Alisher Navoiyni eslaydi va uni do'stlik bog'idagi eng vafodor va mehribon do'st sifatida shunday ta'rif va tavsif etadi:

Do'stlik bog'idagi ma'sus xushkalom,
Vafo shoxidadir Navoiy mudom.

Go'zal so'zlar bilan navo aylagay,
Ozurda dillarni davo aylagay²².

Bundan boshqa ishning bo'lmas adosi, Jahonda do'stlar bo'lmas adosi, o'z davrida Jomiy faqat Navoiyning emas, balki butun o'zbek adabiyotini ham eng yaqin do'sti edi. Navoiy yozishicha, u turkiy tilda she'r yozmasa ham, ammo bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar va ular haqida o'z fikrini ayta olar edi. Mavlono Lutfiy vafoti oldida o'zinint tugallanmay qolgan:

"Gar kori dili oshiq bo kofiri CHin aftad,
Behzon ki ba badxo'yi bemehri chunin aftad²³",

— deb ataladigan matla bilan boshlangan g'azalini Jomiy davom ettirib, tugatib, o'z devoniga kiritsin, — deya vasiyat qilgan. Ma'lumki, Jomiy bu iltimosni bajargan. U Husayn Boyqaro ijodidan ham to'la xabardor edi. Ayniqsa uning Navoiy "Xamsa"siga o'zining "Xiradnomayi Iskandariy" dostonida quyidagi bahoni bergani diqqatga sazovordir:

Ba turki zabon naqshe omad ajab,
Ki jodudamonro buvad mehri lab.
Zi charx ofarinho bar on kilk zod,
Ki in naqshi matbu az on kilk zod²⁴.

Mazmuni:

Turkiy tilda shunday bir ajoyib naqsh (asar) paydo bo'ddiki,
Uning oldida har qanday (so'z) sehgari og'zini ocholmay qoldi.
Falakdan ofarinlar yog'ilsin (bu naqshni chizgan Navoiy) qalamigaki,
Bu go'zal naqsh, axir, o'sha qalamning ishidir.

²² Annemarie SHimmel. Jonon mening jonimda. – T.: "SHarq" , 1999. – B.36.

²³ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy. -S. 175.

²⁴ Annemarie SHimmel. Jonon mening jonimda. – T.: "SHarq" , 1999. – B.36.

1.2 Evropa olimlari tomonidan Abdurahmon Jomiyning ma'naviy merosini o'rganilishi

Ulug' shoir va mutafakkir Mavlono Abdurahmon Jomiy hayoti, adabiy-badiiy va falsafiy-irfoniy merosi Evropa mamlakatlarining sharqshunos olimlari va adiblarining diqqat-e'tiborini doimo o'ziga jalb etib kelgan. Bu borada ayniqsa yirik sharqshunos va islomshunos olimlar – H.Masse, A.Arberri, E.Braun, E.E.Bertels, A.SHimmel, U.CHittik, YA. Rishar, N.Hirr va boshqalar qimmatli tadqiqotlar yaratganlar.

Albatta, Jomiy hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqish Evropada ancha ilgari boshlangan. Jumladan, 1824 yili Mavlono Jomiyning “YUsuf va Zulayxon” dosioni Vinses fon Rozensvayg-SHvannau tomonidan nemis tiligi tarjima qilinib, nashr etilgan.²⁵ Ammo uning adabiy va ilmiy merosini jiddiy tarzda o'rganish XX asrdan boshlanadi. Jumladan, H.Masse Jomiyning “Bahoriston” asarini 1925 yili frantsuz tiliga tarjima qilib, Jomiy hayoti va ijodi xususida qisqacha ma'lumot bilan birga 1925 yilda Parijda nashr ettirdi. Ko'p o'tmay, Edvard Braun o'zining “Fors adabiyoti tarixi” kitobida Jomiy hayoti va ijodi xususida mufassal ma'lumot berib o'tdi²⁶. E.Braunning ushbu asarida garchi Jomiy hayoti, ijodi va qarashlari haqida yangi fikr-mulohazalar ko'zga tashlanmasa-da, Evropada Jomiy haqida mufassal tarzda ma'lumot beruvchi ilk manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Keyinchalik Jomiy hayoti va adabiy-ilmiy merosini o'rganish borasida rus sharqshunoslari tomonidan ham ancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, E.E.Bertelsning jomiyshunoslik borasida qilgan xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi. U jumladan, “Navoiy va Jomiy”²⁷ nomli risolasida bu ikki ulug' shoir va mutafakkirning hayoti, ijodi va ular o'rtasidagi adabiy-ilmiy hamkorlikni tadqiq etar ekan, Jomiy ijodi va uning insonparvarlik g'oyalarini alohida ta'kidlab o'tadi.

Jomiy asarlari ro'yxatini tuzish va ularni tasniflash masalasiga birinchi

²⁵ Edward Browne. A literary history of Persia. Vol. 3. Cambridge. 1928.

²⁶ Bertels E.E. Navoi i Djami. –M.,1965.

²⁷ Chittick, W.C. Ed. De Jami, Naqd al-nosus. Voir introduction, «Euvres de Jami».

marotaba qo'l urgan tadqiqotchi frantsiyalik jomiyshunos olim professor YAn Rishardir. U Jomiy asarlarini Uilyam CHittik tuzgan ro'yxatga tayangan holda²⁸ adabiyot (nasr, nazm), naqliy ilmlar (Qur'onga oid ilmlar — tafsir, hadis, siyrai nabaviy, usuli din, fiqh va shar'iyot, tasavvuf va uning ilmiy-nazariy jihatlar) va lisoniy ilmlar (grammatika, lug'at, she'r san'ati), aqliy ilmlar (riyoziyot, irfon va falsafa — yirik asarlar; kichik asarlar; yo'qolgan asarlar), qaysi mavzuda yozilganligi aniqlanmagan asarlarga bo'lib tasniflaydi.²⁹

YAn Rishar yuqoridagi tasnifni «ro'yxat» deb ataydi. Ammo bu ro'yxatning boshqalardan asosiy farqi shundaki, olim asarlar ro'yxatini tuzish va ularni tavsiflash bilan birga ularni ilmlar, sohalar, mavzular, janrlar va hatto hajm nuqtai nazaridan ham tasniflab o'tadi.³⁰

Jomiyning «Naqd un-nusus fi sharhi Naqsh al-fusus» nomli sharh-asari tasavvuf va irfon olamining buyuk nazariyotchi olimi, SHayx Muhyiddin Ibn al-Arabiyning (m. 1165-1240) arab tilida yozilgan «Naqsh al-fusus» nomli falsafiy-irfoniy asariga bitilgan. Jomiyning ta'kidlashicha, aslida «Naqsh al-fusus»ning o'zi Ibn al-Arabiyning mashhur «Fusus ul-hikam» nomli asaridan olinib, xulosa tarzida yozilgan asar ekan. Jomiyning ikki tilda – arabiy va forsiy aralash nasrda hijriy 863, ya'ni milodiy 1459 yili yozib tugatgan mazkur sharh-asari yuqoridagi nomidan tashqari «Naqshi fusus» va «Naqdi nusus» shakllarida ham nomlanib kelgan. E.E.Bertels «Naqd un-nusus»ni Ibn al-Arabiyning «Fusus ul-hikam»iga yozilgan mukammal sharhning qisqacha tahriri, deb hisoblaydi.³¹ Taniqli tojik jomiyshunos olimi A'loxon Afsahzod «Naqsh al-fusus»ning Jomiy asari emas, balki Ibn al-Arabiyning asari ekanligini nazarda tutib, Bertelsning yuqoridagi fikrini rad etadi.³² Jomiyning falsafiy-irfoniy qarashlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ushbu asar Bombeyda va Tehronda nashr ettirilgan. Asarning Tehrondagi ilmiy-tanqidiy nashri

²⁸ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih. -S. 21-34.

²⁹ Bertels E.E. Navoi i Djami. -S.240-241.

³⁰ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy. -S. 175.

³¹ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy, -S. 183.

³² A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy, -S. 183.

h.sh. 1368 (1989) yilda olmoniyalik sharqshunos va islomshunos olim Uilyam CHittik tomonidan amalga oshirilgan. SHuningdek, U.CHittik ushbu asar bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi ham yoqlagan. Eronlik mashhur tasavvufshunos olim Sayyid Jaloliddin Oshtiyoniyning mazkur nashrga yozgan muqaddimasi, U. CHittik, A.Afsahzod va Moyil Hiraviyning ba'zi bir ishoralarini hisobga olmasa, bu asar atrofida haligacha biron bir jiddiy tadqiqot yuzaga kelgani yo'q. SHuningdek, bu asar boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham o'girilmagan.

Jomiyning arab tilida yozilgan «SHarhi Fusus ul-hikam» nomli falsafiy-irfoniy asari Ibn al-Arabiyning eng mashhur asari – «Fusus ul-hikam»ga bitilgan eng mashhur sharhlardan biridir. «Fusus ul-hikam» o'ta murakkab tilda, ramzu majozlar bilan yozilganligi sababli tushunishi va anglashi mushkul bo'lgan ekan. SHuning uchun ham, XIII asrdayoq unga sharh yozish ehtiyoji tug'ilgan va bu ishga birinchi bo'lib Ibn al-Arabiyning shogirdi, mashhur mutasavvif Sadriddin Quniyaviy qo'l urgan. A.Afsahzodning ta'kidlashicha, «Fusus ul-hikam» til va uslub jihatidan murakkabligi tufayli Sadriddin Quniyaviyning sharhi bilan birga o'qilar ekan.³³ Ammo, irfon ahlida katta qiziqish uyg'otgan bu asarga sharh yozish XVI-asrgacha davom etgan va unga oxirgi sharhlardan birini Jomiy yozgan ekan. Holbuki, olmon sharqshunosi Karl Brokelmann qayd qilganidek, «Fusus ul-hikam»ga 35 ta sharh yozilgan ekan. Ammo, «Islom buyuk doirat ul-maorifi»da berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Usmon YAhyo uning 120 ta sharhiga ishora qiladi³⁴.

Jomiyning «Fusus ul-hikam»ga yozgan sharhi esa o'nga yaqin mashhur sharhlar qatorida tilga olinadi.³⁵

Jomiy o'zining irfon falsafasiga bag'ishlangan «SHarhi ruboiyot fi isboti vahdat al-vujud» asarini qachon yozganligi xususida manbalarda biron-bir aniq ma'lumot uchramaydi. Ali Asg'ar Hikmat ham buni ta'kidlaydi. Ammo A.Afsahzodning taxminiga ko'ra hijriy 878, ya'ni milodiy 1473 yili yozilgan bo'lishi

³³ Juzjoniy A. SH. Tasavvuf va inson. –T.: «Adolat», 2001. –B. 25.

³⁴ Qarang: Kitobxonai markazii Donishgohi Tehron, shumorai 343, Mashhad, 1360.

³⁵ Juzjoniy A. SH. Tasavvuf va inson. –T.: «Adolat», 2001. –B. 25.

mumkin.³⁶ Agar bu taxmin to'g'ri bo'lsa, unda Jomiy bu asarni 59 yoshda, ya'ni tasavvuf va irfonga oid asarlar yoza boshlagan davrida ta'lif etgan bo'lib chiqadi. Frantsiyalik jomiyshunos olim YAn Rishar ham bu asarni Jomiyning ilk irfoniy asarlaridan biri deb hisoblash kerak,³⁷ deydi.

YAn Richard tuzgan fehrist, birinchidan, tasnifiy xarakterga ega bo'lgan ro'yxat sifatida katta ahamiyatga ega. Mazkur tasnifiy ro'yxatning ikkinchi ilmiy ahamiyati shundaki, keltirilgan har bir asar xususida qisqacha va umumiy, ammo aniq ma'lumotlar beriladi. SHuningdek, ba'zi bir asarlarning turlicha nom bilan atalganligi, qaysi tilda yozilganligi, ba'zi hollarda adabiy-ilmiy ahamiyati va hoshiyalarda qaysi tadqiqotchi olimlar tomonidan qaerda nashr ettirilganligini ham ta'kidlab o'tish tadqiqotchi nazaridan chetda qolib ketmagan.

1.3 Abdurahmon Jomiyning diniy-falsafiy g'oyalari

Amir Temur asos solgan Temuriylar saltanati davrida Movarounnahr va Xurosandada badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko'tarildi. SHu davrda fors-tojik adabiyoti o'zining yangi rivojlanish pog'onasiga erishgan bo'lsa, o'zbek adabiyoti ham Atisher Navoiy, Mavlono Lugfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimiy, YAqiniy ijodlari misolida o'z taraqqi-yotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang", Alisher Navoiynish "Xamsa", "Xazoyin ul-mao-ni" asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy etti dostonidan iborat to'plamiga "Haft avrang" ("Etti taxt") deb nom qo'yar ekan, Temuriylar sulolasidan etti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, SHohrux, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro)ni ko'zda tutgan bo'lsa, Navoiy o'z "Xamsa"sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag'ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukmdorlariga o'zlarining ma'lum ma'noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan edilar.

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari-dan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tidda ijod qiluvchilarning ham, forsiy

³⁶ A' loxon Afsahzod. Naqd va barrasii osor va sharhi ahvoli Jomiy, -S. 177.

³⁷ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih, -S. 28.

qalam tebratuvchilarning ham baro-bar va faol qatnasha olgani edi. Buni biz Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida yaqqol ko'ramiz. Unda ijodkor-lar til xususiyatlariga qarab bir-biridan ajratilmagan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to'xtalar ekan, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da: "SHuarodin bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi", — deb yozadi¹. Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o'zbek adabiyotining gullab-yashnashida ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo'lgan.

Abdurahmon Jomiy SHohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniy oilasida du-nyoga keldi. Jomiyning otabobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan. Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'liga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqtdan boshlab o'z tavallud toshan shahri nomini o'ziga ada-biy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. SHarqdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'li-shi ma'qul ko'rilgan). U asosiy umrini Hirotida o'tkazdi va shu erda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib etishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehnining o'tkirligi bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'-lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotga ko'chishi, otasining bu erda shayx ul-islom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hirotida uning o'ktsshiga Xoja Aloud-din Ali Samarqandiy, SHahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mapthur mualliflar o'z hissalarig'gi qo'shdilar. Natijada u arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta va o'zlashtira boshladi³⁸.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoya-siga etkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'-bek, Qozizoda Rumiy, Ati Qushchi kabi allomalarning ma'ruzala-rini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqhshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullays-dan ham

³⁸ Nuriddin Abdurahmoni Jomiy. Lavoyih, -S. 28.

ko'p dars oddi. Hirotida Jomiy tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi.

YOsh Jomiy SHayx Sa'daddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy piri-ning qiziga uylanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muham-mad Naqshband sulukiga mansub edi.

1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'ltiradi. Ora-dan ko'p vaqt o'tmay, 1476/77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiy o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqea bo'ldi.

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, birok shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. SHunint uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha bi-noyi xayriyalar, shu jumladan Hirotida ikki madrasa va xonaqoh, tutilgan shahari — Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning SHamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib etishtag'gi ma'lum.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-mada-niy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisatardan biri Navo- / iy —Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqeida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning "Nafahot ul-uns", Lujjat ul-asror", Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risolai muammo" kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-iqts", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot"³⁹ deb nom qo'yadi.

1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. SHarq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosi-da yozilgan bu dostonlardan "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat

³⁹ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. "YUsuf va Zu-layho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy sujetlarning yangicha talqinlarini berdi.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublari-dan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

Abduraxmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasvda xastalanib, 78 yoshida xayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimshgi Navoiy boshkarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unta atab ko'pgina shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qaig'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Iloxiy sirlar kashfi") degan so'zlar-dan (hijriy 898, melodiyl 1492 yil) chiqarilgan edi.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atnint rang-barang so-halariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xu-roson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, ma-salan, Sulton YA'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan. Uning asarlari o'z davrida va_ undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fan-lar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarla-rining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchra-tish mumkin¹. Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovro'po mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos E. E. Bertels "Jomiy" monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kullieti (O'zR FA Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va SHarq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufnint XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "SHavo-hidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "SHarhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida shar-hi"), "Naqdi nusus" ("Matnni tanqid"), "SHarhi qasidayi "Xam-riya" ("Xamriya" qasidasi sharhi"), "Naqshbavdiy ta'limoti haqida risola", "Vohid" atamasi haqida risola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" ⁴⁰kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatvda Bahovuddin Naqsh-band g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" ta-riqatiga mansub deb hisoblasa-da, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi. U o'zining "Lujjatul-asror" qasvdasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh egib, quyidagi satrlarni bitgan edi:

Tome'oya az bahri gu'ma peshi har xas sar nihad,

Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast.

Mazmuni:

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga quyishga tayyor,

Qanoaglshtar esa mamlakat tsgohi va vaziri ustidan ham kula oladi.

SHoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

Mardi kosib kaz mashaqqat mekunad kafro durusht,

Bahri yaohamvoriyai nafs dag'al hongar ast.

⁴⁰ Abdurahmon Jomiy. (1414-1492): [Shoir Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad haqida] G`G`Yosh kuch.-1991.-№6.-B.25.

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,

Bu qo'ddagi dag'al esa nafs g'idir-budurini tekislovchi randadir⁴¹.

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. She'riy asarlarida esa u Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. SHu bilan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir.

Jomiy "Nafahot ul-uns" asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi.

Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi sag'ir", "Risolayi muammoyi mutavvassit", "Risolayi muammoyi manzum", "SHarhi bayti Masnaviy", "SHarhi bayti Xusrav", "SHarhirubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari SHarq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta naza-riy qo'llanma yaratgani yoki ulug' salaflari asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat berganini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishmandi bo'lganini kursatadi.

Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma yozgan. Arab tilini esa o'z ona tilidek bilgan edi. U vaqtda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175— 1249) "Al-Qofiya" kitobi bo'yicha o'rganilardi. SHoirning suyuqli farzandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'iicha o'qir ekan, darsni

⁴¹ Abdurahmon Jomiy. (1414-1492): [Shoir Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad haqida] G'G`Yosh kuch.-1991.-№6.-B.25.

o'zlashtirishda katta qiyinchilik sezadi. SHunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492 yili, ya'ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi.

SHundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiy "SHarhi" esa "SHarhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozonadi.

Uning aruz bilan bir qatorda muzika nazariyasi haqida "Risolayi musiqiy" asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jildlik "Muzika haqida katta kitob" asaridagi g'oyalarni yanada rivojlan-tirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va no-ohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi. Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandır. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning haetini bezashi zarur.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. SHayx Sa'diyning nomli mashhur hikoyalar to'lamini g'oyat sevgan va uni "jannatdan nmshon, xashak-tikoni ham anbagadir jon" deb ta'riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi. Jamiyatdagi turli tabaqalar hayotidan, tarixdan hikoya qiluvchi bu to'plamda biz janr e'tibori bilan en-gil, yozilish uslubi o'zgacha, tili xalqchil, sujeti sodda ko'p hikoyalarni o'qishimiz mumkin. Har bir hikoya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, quyidagi hikoyani Iskandarning murakkab bir savolga g'oyat oqilona javob berganini va do'stlik, insoniylik g'oyalarini ulug'laganini ko'ramiz: "Iskandardan:

-Sen shunday yoshlik va navqironlik chog'ingda qanday qilib bu davlatu saltanatga erisha odding? - deb so'rganlarida, u shunday javob beribdi:

-Men dushmanlarimga xushmuomala bo'ldim, toki adovat jilovi yig'ilib jonlansin; do'stlarga sadoqatda bo'ldim, toki do'stlik mustahkamlansin"⁴².

"Bahoriston"ning 7-ravzasi adabiy tazkira xarakterida bo'lib, unda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy, SHayx Sa'diy, Hofiz SHeroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur fors-tojik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lu-motlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor.

Lekin Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turla-rini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirik she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi. Navoiy: Jomiyning yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergan bo'lsa-da, "ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas ekandurlar", — deb yozadi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiy, mazmuni, Allohni tanish, biligd bilan bol iq haqiqat-ni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi.

Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p SHarq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtirolari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no ber-gan. Jomiy she'riy merosinint yirik tadqiqotchisi A Afsaxzod ham bu to'g'rida: "Jomiydagi so'fiyona kayfiyat uning ijodiy yo'li-ni eng ibtidosidan boshlangan edi",¹ — deb yozganda to'la haq edi.

Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan.

SHoir she'riyatidagi pand-nasihat ruhidagi she'rlar kishilar-ni ezgulikka, halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Alloh tomonidan berilgan umrni yaxshi ishlari bilan yashab o'tkazishga da'vat etadi. U o'z ruboiylarining birida yozadi:

⁴² Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

Bulaylik dil xasta ham siynalar chok,
Hayotda doimo pok bo'laylik, pok.
Xokistar bo'laylik ishning boshidan,
CHunki oxiri ham xok bo'lurmiz, xok⁴³.

Rang-barang hayotiy mavzularda yarattan badiiy yuksak va serjilo she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyittan Jomiy, Sa'diy SHeroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz SHeroziy kabi so'z san'atkorlari safidan munosib o'rin oldi.

Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, shubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-tojik adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa" laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muam-molarga o'z munosabatini bildirishga harakat qilganki, masnaviyda, oldingi "Xamsa" dostonlari vaznida yaratilgan bu dostonlar Ni-zomiy va Dehlaviy asarlaridan qolishmasligini ta'kidlab, Ali-she'r Navoiy quyidagi baytlarni yozgan edi⁴⁴: G'azal dardu so'ziyai, vah-vah, ne dey! Desa masnaviy, allah-allah, ne dey! Agar nazmdin borcha usdub anta, Bori bir-biridin erur xo'b anga, Vale masnaviy o'zga olam durur, Kn ta'biga holo musaddam durur. Bo'lub jilvagar tab'i ko'zqusida, Ki sabt ayladi "Xamsa" o'trusida, Erur andin ortuqkya, o'ksuk emas, El andin der ortuqki, o'ksuk demas!¹ Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalq-parvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulm-ni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Buni u ayniqsa shoh-lar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi.

Jomiyning "YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonlarida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan

⁴³ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

⁴⁴ Vohidov R. Besh hayrat: Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning ilk uchrashuvlariga doir ayrim qaydlar G`G`Jamiyat va boshqaruv.-1998.-№3.-B.50-52.

bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rin tutadi. "Layli va Majnun"ga kirish qismida do'stlikni, muhabbatni ulutlab shoir yozadi:

Umid xazinasin kaliti yordir,
Hayotint u birla shod, baxtiyordir.
Vujuding maqsudi nedir g'ayri yor?
YOrsiz bu savdoning ne keragi bor?
Vujuding topguncha butkul inqiroz,
Biror qush etolmas yor kabi parvoz⁴⁵.

Xuddi shu satrlar davomida Jomiy do'stlikka misol tarzida bir umrlik qadrdon do'sti Alisher Navoiyni eslaydi va uni do'stlik bog'idagi eng vafodor va mehribon do'st sifatida shunday ta'rif va tavsif etadi:

Do'stlik bog'idagi ma'sus xushkalom,
Vafo shoxidadir Navoiy mudom.
Go'zal so'zlar bilan navo aylagay,
Ozurda dillarni davo aylagay.
Bundan boshqa ishning bo'lmas adosi,
Jahonda do'stlar bo'lmas adosi.⁴⁶

O'z davrida Jomiy faqat Navoiyning emas, balki butun o'zbek adabiyotini ham eng yaqin do'sti edi. Navoiy yozishicha, u turkiy tilda she'r yozmasa ham, ammo bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar va ular haqida o'z fikrini ayta olar edi. Mavlono Lutfiy vafoti oldida o'zinint tugallanmay qolgan:

"Gar kori dili oshiq bo kofiri CHin aftad,

Beh zon ki ba badxo'yi bemehri chunin aftad"⁴⁷, - deb ataladigan matn bilan boshlangan g'azalini Jomiy davom ettirib, tugatib, o'z devoniga kiritsin, - deya vasiyat qilgan. Ma'lumki, Jomiy bu iltimosni bajargan. U Husayn Boyqaro ijodidan ham to'la xabardor edi.

⁴⁵ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida. -T., 1981. -36b.

⁴⁶ Jomiy A. Shuurimda namoyonsan damo-dam G'Forsiydan h. Saidhani tarjimasi G'G'O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -2004. -23 yanv.

⁴⁷ Vohidov R. Besh hayrat: Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning ilk uchrashuvlariga doir ayrim qaydlar G'G'Jamiat va boshqaruv. -1998. -№3. -B.50-52.

Ayniqsa uning Navoiy "Xamsa"sig a o'zining "Xiradnomayi Iskandariy" dostonida quyidagi bahoni bergani diqqatga sazovordir:

Ba turki zabon naqshe omad ajab,
Ki jodudamonro buvad mehrilab.
Zi charx ofarinho bar on kilk zod,
Ki in naqshi matbu az on kilk zod⁴⁸.

Mazmuni:

Turkiy tilda shunday bir ajoyib naqsh (asar) paydo bo'ddiki, Unint oldida har qandai (so'z) sehgari og'zini ocholmay qoldi. Falakdan ofarinlar yog'ilsin (bu naqshni chiztan Navoiy) qalamigaki,

Bu guzshg naqsh, axir, o'sha qalamnint ishidir.

⁴⁸ Jomiy A. Shuurimda namoyonsan damo-dam G`Forsiydan h. Saidhani tarjimasi G`G`O`zbekiston adabiyoti va san'ati.-2004.-23 yanv.

II-bob. ABDURAHMON JOMIY MEROSINING BUGUNGI KUN YOSHLAR UCHUN AHAMIYATI

2.1 Abdurahmon Jomiyning gumonistik g'oyalari

SHarq mumtoz she'riyati dunyo badiiy tafakkurining o'z jozibasiga sohib, qudratli markazlaridan biri. Jahonga shuhrat taratgan ulug' shoir-san'atkorlarning aksariyati SHarq she'riyati namoyandalari edi. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy ular davrasida alohida mavqe va e'tiborga ega. Jomiy – shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvif. Hazrat Jomiy keng qamrovli ijodiyotida Rudakiydan boshlab to Hofiz va Kamol Xo'jandiygacha bo'lgan so'z san'atkorlari an'analarini ijodiy davom ettirib, fors-tojik she'riyatini yangi pog'onaga ko'targan edi. Jomiydan keyin badiiy ijod tajribasini teran ilm va irfon, qoyaday sarbaland butun shaxsiyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin bo'lmay qolgandi.

“Sulton Husayn Mirzoning zamoni, – deydi,

Zahiriddin Muhammad Bobur, – ajab zamone edi,

Ahli fazl va benazir eldin bataxis Hiri shahri mamlu erdi.

Har kishining kim bir ishg'a mashg'ullug'i bor edi.

Himmati va g'arazi ul edikim,

Ul ishni kamolg'a tegurgay⁴⁹.

Bu jumladin bir Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. SHE'ri xud ma'lumdir”. Asrdosh va izdoshlarning Abdurahmon Jomiyga bergan ta'rif, tavsif va baholari bir joyga jamlansa, nainki o'z zamonida, undan keyingi davrlarda ham Jomiyga teng, Jomiyning joyini egallashga munosib SHaxs tavallud topmagan, degan xulosaga kelish shubhasizdir. Jomiy shu qadar benazir, shu darajada noyob shaxsiyat. Alisher

⁴⁹ Jomiy A. Yusuf va Zulayho G`Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O`zbekiston KP MK nashr., 1983.- 112 b.

Navoiy ustozining sha'ni-shavkatini ulug'lovchi mana bunday so'zlarni aytganda to'la haq edi:

YO Rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni.
Kim aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoniy⁵⁰.

Ko'p shoiru adiblar ijodga o'zlaricha qiziqib ketib, nafsni tanish, ranj va mashaqqat otashida toblanib shaxsiyat yaratishni umuman xayolga ham keltirishmaydi. Ko'plab mayda "mencha"lar xarxashasidan qutulmagan «Men» sinib, albatta parchalanadi. Holbuki, ijodkorning birinchi vazifasi yozishni o'ylash emas, yozadigan odamning (o'zining) butunligi, haqiqiy hurligini to'g'ri aniqlashdir. "Jamiyatbop" yozuvchi boshdanoq mag'lubiyatga mahkum. Mahdudlikdan u erk axtaradi, ojizlikni kuch, fanoni baqo deya tasavvur etadi. Hurlik maqomiga yuksalish behad og'ir, g'oyatda murakkab ish. Bu xususda keng mushohada yuritgan Aziziddin Nasafiy shunday deydi: "Barcha insonlar bu olamda zindondadirlar. Payg'ambar, vali, sulton, malik – hamma-hammasi bog'langan. Ba'zisining bir, ayrimining ikki, boshqa birovining o'n, yana birlarining yuz, ba'zisining esa ming zanjiri bordir. Bu jahonda zanjir-tuzoqsiz odamning o'zi yo'q. Ammo bir zanjirli ming zanjirliga nisbatan erkin, azob va izzat ham uning ozroqdir"⁵¹. Darhaqiqat, o'tar dunyoda har kim o'zicha bir nimaga muhtalo: kimdir mavqe va mansab uchun rohat-farog'atini fido aylaydi, kimdir obro' va amaldan ajralgani uchun izzat chekadi; birov boy-badavlat ekan, qashshoqlikka yo'liqqach, o'zini-o'zi qiynaydi. Kimlardir shon-shuhrat shavqida boshqalarni er bilan yakson aylashga urinadi. Hirs, tama domiga ilinganlar qancha. Hosidlar fitna va g'avg'o qo'zg'ab niyatga erishish harakatidan qaytmaydi. Kimdir hamma narsaga qo'l siltab rindlik qadahini qo'ldan qo'ymaydi... Xullas, ko'pchilik ahamiyati past turfa-turfa ehtiros

⁵⁰ Jomiy A. Bahoriston.-T.: Yozuvchi, 1997.-111 b.

⁵¹ Jomiy A.Yusuf va Zulayho G`Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O'zbekiston KP MK nashr., 1983.-112 b.

asiri, ya'ni ko'zga ko'rinmas zanjirga bog'liq. Demak, yaxshilik bilan yomonlik, to'g'rilik bilan egrilikni farqlash ham nisbiydir. Nega shunday? Buning tub sababi nimada va nimadan boshlanib, nima bilan tugaydi? Musulmon shoirlari orasida badiiy va ilmiy asarlari, shaxsiy hayot tajribalari orqali ushbu savollarga to'laqonli javob bera bilgan mutafakkirlardan biri Abdurahmon Jomiy edi.

Umrest, ki ba hazor man hastii man,
Man mego'yam, vale nadonam "man" chist?⁵²

Mazmuni: Bir umrki, mening mavjudligim ming manda kechadi.

Man deyman, ammo "man" nima? Bilmayman.

Sodda qilib aytganda, Jomiy ijodiyotining o'zak g'oyasi Ishq. Haqiqiy ishq nuri, zavq-shavqi ila basiratni ochish. Ko'ngil nazarini ma'no, mohiyat olamiga qaratish.

O'z jamoliga nazar tashlab, tamosho qildi ishq,
Nom berib, oshiq ila ma'shuqni paydo qildi ishq⁵³.

Erdi oshiq botinu ma'shuq zohir, etdi aks,
Sirri botinni zuhur aylab, huvaydo qildi ishq.

O'zida ul o'zni ko'rdi, jilvalar ko'rsin debon,
Senu menga bir ajib mir'oti dunyo qildi ishq...

CHinakam soflik – Dildagi soflik. Ruhda, ko'ngilda go'zallik bo'lmasa, zohiriy go'zalliklar shuurga keng yo'l ochib berolmaydi. Hazrat Jomiyning "gul jamoli"dan "dil jamoli"ni ustun qo'yib, munavvar ko'ngil husni bilan dunyoni hayron qoldir, deyishida olam-olam ma'no yashiringan:

⁵² Jomiy A. Bahoriston.-T.: Yozuvchi, 1997.-111 b.

⁵³ Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.

Jamoli dil talab kun, ne jamoli gul, ki gar chun hur –
Jamoli dil shavad tobon, shavand ofoq hayronash⁵⁴.

Abdurahmon Jomiy ruhoniyyatida go'yo zamin va samo, g'ayb va shahodat olami birlashib, ajralmas bir uyg'unlik kasb etgan. Jomiy tasvirlarida ruh bir shu'la, bir nur va bir ziyodir. Ruh, shaklan goh qirmizi, goh qora, goh oq yo sariq o'laroq turli-turli ranglarda ko'rinadi. Bunday vaqtlarda u moddani tamsil etadi. Zero, ruhga rang berguvchi moddadir. Ruh uchun vaqt, zamon degan chegara yo'q. Xayol, tafakkur singari parvozi ko'p oson va engil. Tafakkur qaerda bo'lsa, ruh ham o'sha erda. Anglaydigan, xatosiz tushunadigan ruh bo'lib, tafakkur unga ergashuvchi. Modda ruhga to'siq bo'lolmaydi. Ruh hamma joyga bora oladi, havodan, suvdan, olov va tuproqdan bemalol oshib o'tadi. Ruh bo'linib parchalanmaydi, lekin quyosh har tomondan ko'ringanidek, ruh ham ayni bir paytda turli joylarga parvoz aylashga qodir. Jomiy nuqtai nazarida ma'no e'tibori ila inson ulug' olam bo'lgani bois Olloh uni hayot, ilm, iroda, qudrat, his etish, ko'rish, kalom kabi o'zining so'ngsiz sifatlaridan bir qanchasiga sherik etgan va o'zini insonda shu sifatlar ila bilgan, bildirgan. Komil inson, bu olamning ruhi va olam uning jasadi yanglig'dirki, doimo ruhni axtaradi, izlaydi, orzu qiladi. SHuning uchun insonning birinchi va asosiy vazifasi, ma'naviy-axloqiy burchi nafsu shahvat ofatlaridan qutulmoqdir.

Har qaerdaki nafs va shahvat seli to'fon qilsa,
baxtu iqbol xonasi ham barbod bo'lur, deydi shoir:
Seli shahvat har kujo to'fon kunad,
Xonai iqbolro vayron kunad⁵⁵.

⁵⁴ Jomiy A.Yusuf va Zulayho G'Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O'zbekiston KP MK nashr., 1983.-112 b.

⁵⁵ Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.

Jomiy olamini bilgan – Haqni ham, xalqni ham biladi. Jomiy o'qigan va tushungan – haqiqatning zohirini ham, botinini ham tushunadi. Ko'ngil zavolini ham, kamolini ham his qiladi.

2.2. Abdurahmon Jomiyning ilm va ijod to'g'risidagi qarashlari

Jomiyning bobo-bobokalonlari nasl-nasabi toza, obro'-e'tibori yuksak zotlar bo'lishgan. Alisher Navoiy Jomiy vafotidan so'ng ustoziga bag'ishlab yozgan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida bu haqda, “Alarning oliy nasablari imom ul-mujtahidin Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz SHayboniyg'a borurkim, Hurmuz bani shaybon qabilasining maliki ermishkim, Bag'dodda saltanat qilibdur...”⁵⁶, deb yozadi. SHoirning otasi Nizomiddin Ahmad esa din va shariat ilmining peshvolaridan edi. Ilk tahsilni Jomiy otasidan olgan, go'daklikdayoq o'qishni o'rgangan. Navoiyning qayd qilishicha, u “to'rt yo besh yoshlarida” maktabga qatnay boshlagan. Lekin ko'p o'tmay Jomiyning oilasi Jomdan Hirotga ko'chib kelishadi. Buning sababini Navoiy shunday izohlaydi: “Bori kichik yoshidin shabob ahdining avoyilig'achakim (yigitlik davrining boshlanishigacha), Jom viloyatida ermishlar – alarg'a foyda etkurur kishi oz topilg'on jihatidin:

Quyosh ul nav'ki mag'rib sori,
YO Nabi uylaki YAsrib sori.

shahrga azimat qilibdurlar...”. Har bir ish va hunarni kamolga etkazish, talantni to'la ro'yobga chiqarishga rag'batlantiruvchi, ilm va ijodni qo'llab-quvvatlash bilan tanilgan Hirot Jomiy quchoq ochib qarshilaydi. Ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot beshiklaridan bo'lgan bu muazzam shahardagi nomdor madrasalarda Jomiy ilm o'rganishga kirishib ketadi. Qisqa muddatda nainki zohir ilmi, botin ilmida, xususan, tasavvuf jabhasida ko'p bilim egallashga erishadi. Ammo she'rdan

⁵⁶ Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.

yiroqlashmaydi. Ilm va irfonni she'riyat xizmatiga safarbar etishning eng ta'sirchan yo'llari, tabiiy, ko'rkam usullarini izlaydi. Fikr hayoti, ruh zavqi, ko'ngil ziyosini Jomiy har narsadan – hattoki, ma'rifatdan ham afzalroq ko'radi:

Maorif gar chu mo' borik boshad,
CHy hosil z-on chu dil torik boshad?

Mazmuni: Ma'rifat sochday nozik bo'lsa-da,

yurak agar qoraygan ersa, undan nima natija chiqadi?

Jomiy ruboiylaridan birida, qaerdaki xona eshigidan da'vo kirib kelsa, ma'ni shitob bilan tuynukdan chiqib qochadi deydi:

Har jo zi dari xona daromad da'vy,
Ma'ni ba shitob az rahi ravzan bigurext.

SHoirning o'zi esa butun umri mobaynida da'vo, iddao, shaxsiy g'arazdan forig' yashagan. Tafakkur, amal, munosabat, mehr-muhabbat xolisligida Mavlono Jomiy samo kishisiday taassurot qoldiradi. U odam va odamiyatga nisbatan dushmanlik, bepisandlik, zolimlikni umuman qabul qilolmaydi. Uningcha, boshqalarga haqsizlik o'tkazib, ularga past nazarda qarash itlik va yirtqichlik. Bu itlik va yirtqichlikka sabab aqlsizlik:

Hashm bo digaron sagivu dodyist,
V-in sagivu dody zi bexiradyist⁵⁷.

Agar odamiylik ko'z, og'iz, eshitish va ko'rish bilan belgilansa, devor naqshlari bilan insoniylik o'rtasida hech farq qolmaydi. CHunki eb, ichib, yotib, g'azab va nafsga qul bo'lish insoniylik olamidan bexabar, jahl zulmatidan hech qutulolmaydigan hayvonga ham xosdir:

⁵⁷ Umrzoqov B. Jomiy-Xojagon tarihinining yetuk vakili G`G`Sharq yulduzi.-2002.-№4.-B.143-145.

Agar odamiy ba chashm astu dahonu go'shu bini,
CHi miyoni naqshi devoru miyoni odamiyat.
Xo'ru xobu hashmu shahvat shag'abastu jahlu zulmat,
Hayvon xabar nadorad zi jahoni odamiyat.

Ulkan ijodiy shaxsiyat har qanaqa sharoit, jon ezuvchi har qanday vaziyatda ham katta orzu-umid, yorug' xayollar bilan yashaydi. Bu holat uni ba'zan xilvat yo uzlatga undasa, goho safar va sayohatlarga chorlaydi. Jomiy Turkistonni "ka'bai maqsud" (bunda albatta YAssaviy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror kabi tariqat pirlari ham nazarga olingan) deb ta'riflagan edi:

Jomy, az xoki Xuroson chy kuny azmi Hijoz,
CHun turo ka'bai maqsud ba Turkiston ast⁵⁸.

Xullas, Jomiy bilimini takomillashtirish uchun Samarqandga yo'l oladi. Ulug'bek madrasasida o'qishni davom ettiradi. Umumiy ma'lumotlarga ko'ra, mashhur qonunshunos olim xoja Fazlulloh Abulays, buyuk munajjim Qozizoda Rumiy yosh tolibi ilmning qobiliyati va zakovatiga yuqori baho beradilar. Sulton Ulug'bek huzuridagi bir yig'inda Qozizoda Rumiy "Jomiy kabi baland iste'dodli yigit hanuzgacha Amuning nari yog'idan kelmagan edi", degan ekan. Samarqand hayoti, Samarqand ilmiy-adabiy muhiti Jomiyning dilida o'chmas iz qoldirgandi. Samarqand uning ilmiga ilm qo'shib, insoniy fazilatlarining boyishi va teranlashuviga erkinlik bergandi. SHu o'rinda bir narsani eslatib o'tish kerakka o'xshaydi. Samarqandda ham, keyinroq Hirotda ham bir necha marotaba Jomiyning saroy xizmatiga taklif qilishadi. SHoir esa bu taklif va iltifotlarni qat'iyan rad etadi. CHunki u o'zining tarixiy vazifasi va burchini bekami ko'st ado aylash, vijdon xotirjamligi, qalb hurriyati, fikr erkinligini saqlab qolish uchun ilmdan, adabiyotdan o'zga bir "maydon"ni tasavvur qila olmasdi. Bu esa ilm, ijod, san'at odami uchun eng asosiysi. Zero, erkinlik ketsa, dardisar tashvishlar, e'tiqodni buzib, irodani emiruvchi har turli balo-qazolar o'z-o'zidan bostirib kelaveradi. SHuni e'tiborga olib

⁵⁸ Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi.-T.,1991.- 64b.

bo'lsa kerakki, mutafakkir shoir "YUsuf va Zulayho" dostonida o'g'liga qaratilgan nasihatlarida, mansab eshigiga aslo yaqin yo'lama, "ki az har mansabe bemansabi beh" – "har qanaqa mansabdan mansabsizlik yaxshi" deb yozadi⁵⁹. Navoiyning vazirlik mansabini tark qilib, saroydan ketishga qaror aylaganligini bilgan Jomiy undan buning sababini so'raydi. "Inson jinsi suhbat va ixtilotidin mamul bo'lib erdim, bu ishga ul bois bo'ldi", deydi Navoiy. SHunda Jomiy "Inson kimni xayol qilib erding, bizga dag'i ko'rguz?" – deb so'roq tashlaydi. Ushbu savolning o'ziyoq insonparvar shoirning, xalq moli va jonini zulukday so'rgan mansab ahliga munosabatini nihoyatda aniq aks ettiradi. Jomiy mansabni emas, mansabparastlikdan tug'ilajak bedodlik, noinsoflik, razolatkorliklarni qoralagan. Martabada ko'tarilib, odamiylikda butkul tubanlashgan erksiz-ixtiyorsiz gumashtalar qiyofasida u millat, saltanat tanazzulini ko'rgan, dehqon, hunarmand mehnatini o'ylab esa diliga yorug' hislar oqib kelgan.

Quvvati jonu tan zi dehqon ast,
Quti ruhu badan zi dehqon ast.

Gar nayobad jahon zi dehqon bahr,
Qaht xezad zi korxonai dahr⁶⁰.

Mazmuni: Jonu tanning kuch-quvvati dehqon erur.

Ruh va vujudning xayr-barakasi dehqondir.

Agar dunyo dehqon mehnatidan bahra topmasa, korxonasida uning qahatchilik qo'padi.

Jomiy tasavvuf ilmining chinakam bilimdoni, naqshbandiylik tariqiga mansub shayx, mutasavvif shoir. Lekin u jaholat, riyo yo'liga kirgan so'fiylar bilan hech murosa qilmagan. Haq visoliga erishish iddaosi ila hamma narsani yig'ishtirib, safsata sotishni kasb etib olgan so'fiy va darveshlarni shoir dehqonning bir tomchi teriga ham arzitmaydi:

⁵⁹ Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi.-T.,1991.- 64b.

⁶⁰ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

Hazar az so'fiyoni shahru diyor,
Hama nomardumonu mardumxor.

Korashon g'ayri xobu xo'rdan ne,
Hechashon fikri ro'zi murdan ne⁶¹.

Mazmuni: SHahru diyordagi bu so'fiylardan hazar qil. Ularning barchasi odamiylik qiyofasini unutgan, odamiylik sha'nini xorlagan kimsalardir. Eyish-ichish va uxlashdan boshqa tashvishlari yo'q. Hatto o'limni odamday qarshilashni ham o'ylab ko'rolmaydilar⁶².

Xalqni unutib Haq deguvchi, bu dunyoga nafrat ila boqib oxirat saodatiga ko'z tikuvchilar Jomiy maslagidan yiroq kimsalar edi. Badbinlik, tekinxo'rlik, suratparastlik, ortiqcha shikastalik, ma'naviy muteliklarga u aslo yon berolmasdi. Olloh va payg'ambar, ishq va sof vijdon hukmi ila yashash tarafdori edi. Zamondoshlarining ishoratlari, xususan "Rashahot aynul hayot" muallifining xabarlaridan anglashilishicha, Jomiy rasmiy tahsilini nihoyasiga etkazib, kamolotga erishgach oila qurishni ixtiyor etib, piri Mavlono Sa'diddin Koshg'ariyning qiziga uylanib, to'rt farzand ko'rgan. To'ng'ich o'g'li bor-yo'g'i bir kungina umr kechirgan. Ikkinchi o'g'li Safiuddin Muhammad 1475 yilda tavallud topgan. To'ng'ich chaqaloqning hayotdan tez ko'z yumishi Jomiyni bu o'g'ilga qattiq bog'laydi. Ammo bir yil o'tar-o'tmas u ham vafot qiladi. Albatta, bu musibat shoir qalbiga favqulodda yomon ta'sir o'tkazadi. Safiuddin o'limiga bag'ishlab u etti baytlik marsiya yozadi. Unda shunday misralar bor:

Rexti xuni dil az didai giryonu padar,
Rahi bar joni padar n-omadat, ey joni padar⁶³.

⁶¹ Abdulqodirov A. Tavhid-kamolot manzili: [Jomiy va Navoiy tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligi haqida] G`G`Guliston.-1998.-№2.-B.60.

⁶² Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

⁶³ Abdurahmon Jomiy. (1414-1492): [Shoir Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad haqida] G`G`Yosh kuch.-1991.-№6.-B.25.

Mazmuni: otangning giryon ko'zlaridan yurak qonlarini oqizding.

Otang jonidan joy olganding nechun kelmading, ey otangning joni!

Alisher Navoiy ustoz ko'ngliga tasalli berish va ayriliq otashini pasaytirish maqsadida Safiuddin vafotiga bir tarix yozadi. Oradan ikki yil o'tadi. Jomiyning yoshi 63 ga to'lgach, 1477 yil oilada uchinchi farzand dunyoga keladi. Ikki o'g'ildan judo bo'lgan ota-onaning hasratdan keyingi shodligini tasavvur qilish qiyin emas, albatta. YAngi tug'ilgan o'g'ilga Ziyovuddin YUsuf deb nom qo'yishadi. 1486 yil Abdurahmon Jomiy xonadonida to'rtinchi o'g'il tug'iladi. Unga Zahiriddin Iso deb nom beriladi. Qarangki, u ham uzoq yasholmaydi⁶⁴. SHoir birgina o'g'il – Ziyovuddin YUsuf bilan qoladi.

Ziyovuddin YUsuf to'rt yoshda ekan, shoir unga atab 1481 yilda bir pandnoma yozib, uni "Tuhfat ul-asror" asariga kiritadi. So'ng farzandiga murojaat tarzida yana ikki pandnoma yaratadi. Ular bugun ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini aytarli boy bergani yo'q. Abdurahmon Jomiy serqirra va sermahsul iste'dod sohibi. Ilmda uning asarlari soni ellikdan ortiq qayd etilgan. Jomiy mumtoz she'riyatning g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlarida ilhom bilan ijod qilgan. Ishq, irfon, komillik g'oyalarini u yangicha munosabat, yangicha ohang va bo'yoqlarda tasvirlab bergan. "Mening she'rim, – deydi u, – ishq azobi va qon yutishning bayonidir. G'azal devoni emas ular, mening qilgan ishlarim, chekkan g'am-g'ussalarim".

SHe'ri man Jomy, bayoni ishqu xun xo'rdan buvad,
In na devoni g'azal, devoni a'moli man ast⁶⁵.

SHoirning qalb holati, iztirob harorati, shaxsiy fazilatlari she'rda nechog'lik yorqinroq aksini topsa, samimiyat o'shancha ortadi. SHoir hamma narsaga inontirsa-yu, samimiyatga, xususan, dard va iztirob samimiyligiga inontirib bilmasa, qilgan mehnati besamar. An'anaviy yo'lda ijod qilishning qaltis jihatlaridan biri ana

⁶⁴ Abdurahmon Jomiy. (1414-1492): [Shoir Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad haqida] G'G'Yosh kuch.-1991.-№6.-B.25.

⁶⁵ Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.

shu. Qaysi lirik janrda qalam yuritmasin, Jomiy buni hisobga olgan. SHuning uchun fors-tojik she'riyati Jomiy tajribalari timsolida soddalik va samimiyatning yangi marralarini ishğ'ol aylagan edi deyish mumkin. Hayot fayzi, umrning sir-asrori, ishq hikmati, oshiqlik g'am-azobi, ma'shuqaning nozu itobi, orifning sukuti, g'aribning hasrati, faqirning shavqi, yulduzlarning charaqlashi, g'urubning mahzunligi, tunning shukuhi, samovotning cheksizligi – bularning barisi she'r. Turfa ko'zli buloqlarning shildirashi, dengizlarning sokin shovullashi, shamollarning qo'shig'i, yaproqlar va gullarning o'pishishi, bulbullarning nolasi – bu musiqa. Vahdati vujud ta'limotiga tayanib Jomiy ana shu haqiqat, manzara va musiqalarni inson ruhi, qalbi, tafakkur sirlarini ochishga xizmat qildiradi. Avomga maqbul, olomon saviyasiga muvofiq tushadigan she'rni u sust va xom she'r deb hisoblagan:

She'r, kaftod qabuli xotiri om,
Xos donad, ki sust boshadu xom⁶⁶.

G'azal, ruboiy, qit'a, tarji'band, tarkibband janridagi she'rlari Jomiyning lirik salohiyatini namoyish etgan bo'lsa, dostonlari epik mahoratini ko'rsatgan. "Tuhfat ul-ahror" ("Xayrli kishilar tuhfası"), "Sibhat ul-abror" ("YAxshilar tasbihi"), "YUsuf va Zulayxo", "Layli va Majnun", "Xiradnomai Iskandar", "Solomon va Absol", "Silsilat uz-zahab" singari asarlarida falsafa, axloq, ishq, irfon va tasavvuf, jamiyat va siyosat, shaxs erki va saltanat singari masalalardan bahs yuritilgan. Keyinchalik ular "Haft avrang" ("Etti taxt") nomi ostida birlashtirilib shuhrat tutgan. Jomiyning nasrda yozilgan asarlari orasida "Bahoriston" va "Nafahot ul-uns" kitoblari doimo kuchli ishtiyoq bilan o'qib-o'rganilganini ta'kidlash lozim. Jomiy "Risolai aruz", "Risolai qofiya", "Risolai musiqa", "SHarhi ruboiyot" kabi bir necha ilmiy risolalarning ham muallifi. Bularning har biri uchun Jomiy zahmat chekkan, ko'z nurini sarflagan. Tabiiyki, har birida bir ixtironi ko'zlagan.

⁶⁶ Umrzoqov B. Jomiy-Xojagon tarihinıng yetuk vakili G`G`Sharq yulduzi.-2002.-№4.-B.143-145.

Bashariyat qadim, SHarqdan har qancha minnatdor bo'lsa arziydi. SHarq barcha buyuk dinlarga beshik. Jahondagi eng muhtasham madaniyat, ilm-fan koshonalari dastlab SHarqda bino etilgan. Adabiyot, san'at, musiqa orqali o'zni tanishni inson ilk bora mashriqzaminda amalga oshirgan. Xullas, aytsa-aytgulik haqiqat va hodisotlar ko'p. Ularga erishish qanday kechgan? Deyarli birortasi ham engil va oson bo'lmagan. Hammasining ortida mashaqqat, fidoiylilik, azob-uqubat va shijoat yashirindir.

Ma'lumki, SHarq olamida toju taxt, ijtimoiy-siyosiy jangu jadallardan tashqari, mazhab, tariqat olishuvlari ham quloch yozgan. Bular ham etmaganidek, olimu ulamolar o'zaro masala talashishgan: ba'zan yakka holda, ko'pincha guruh-guruh bo'lib nayzabozlik qilingan. Imom G'azzoliy hazratlari islom olamining faxru iftixori maqomiga yuksalib, jahonga dovrug' taratgan alloma. Biroq ul zotning g'oyatda keskinlik va murosasizlik bilan Forobiy va Ibn Sinoni qoralashlarini anglash baribir qiyin. Xuddi shuningdek, Ibn Rushdning G'azzoliy tanqidiga qaratilgan so'zlaridan taajjublanmaslikning hech iloji yo'q. Fikr-qarashlari din, shariat, siyosat "tarozu"siga to'g'ri kelmay qolgan mutasavvif, shoir, olimlarni kufr va isyonda ayblash SHarqning aytarli barcha o'lkalarida bir urf tusini olgan. Boyazid Bistomiy, Ibn Sino, Ibn Arabiy, Nasimiy⁶⁷... Bular kabi yuzlab buyuk siymolarning ismi sharifiga "kofir" tamg'asi bosilgan. Holbuki, ularning har biri insoniyatning bilimdon, hurfikrli farzandlari edi. Qilich va miltiqqa ochiq qo'lni qurol o'laroq qarshi ko'tarib bo'lmaganidek, jaholat, gumrohlik va yovuzlik balo-qazolarini faqat ilm yo ma'rifat bilan engmoq dushvordir. Hayvon gulshanni bosib, yanchib toptagani singari ilmsizlik, nodonlik irfon bo'stonini payhon etadi. Ahmad YAssaviy bejiz:

Nodonlardan qochib er ostiga kirdim mano,

⁶⁷ Samarqandiy Davlatshoh. Nuriddin Abdurahmon Jomiy: [Buyuk alloma haqida] G'Forschadan B.Ahmedov tarjimasi G'G'Muloqot.-1999.-№4.-B.32.

demagan. Yomonlik va jaholatga qarshi turishda Abdurahmon Jomiy nisbatan o'zgacha yo'l tanlagan. Avvalo shuni qayd etmoq joizki, Jomiy birov to'g'risida nohaq so'z aytmagan, dushmanlik, xusumat kayfiyatini umrida ko'ngliga yo'latmagan. Boz ustiga, yuqorida eslatilganidek, g'animlik, adovat o'chog'i bo'lmish amaldorlik muhitiga umuman qadam qo'ymagan. Aslida bunday odamda dushman va dushmanlik bo'lmasligi kerak. El-yurt taqdiriga kuyingan, dinu diyonat, ilmu ma'rifat degan har bir kishi u shohmi, gadomi, olim yo ijodkormi – barcha-barchasi Jomiy qarshisida ta'zimga bosh eggan. Va buni o'zi uchun zo'r sharaf bilgan. Jomiy oddiy, beg'araz, samimiy, mehnatkash va iqtidorli odamlarni ko'ngliga nechog'lik yaqin olsa, hirsu havoga qul mansabdor, ong va idroki qurib-qaqshagan dindor, riyokor so'fiy, talantsiz, biroq ashaddiy xudbin va shuhratparast shoiru ulamolardan o'zini o'shancha yiroq tutardi. Navoiy uchun Jomiyni, Jomiy uchun Navoiyni yomon ko'rib, goh oshkora, goh pinhona ig'vo, fitna, tuhmat to'qiydiganlar esa qanchadan-qancha edi. Ulardan ba'zilarining "tabarruk" nomlari hatto ixcham shakldagi she'rlarda ham ochiq tilga olingan. Eski bayozlardan biriga kiritilgan mana bu ruboiyni o'qing:

Kohiyu G'izoliy on du loya'qili mast,
Dar g'aybati Jomiyu Navoy zada dast,
Dar dahr kase ba misli eshon naguzasht,
Kohy, chu xas astu ham G'izoliy chu sag ast⁶⁸.

Mazmuni: Kohiyu G'izoliy Jomiy va Navoiyga g'aybat qo'lini cho'zgan ikki aqlsiz mastdir. Dunyoda ularga o'xshaydigan biror kimsa o'tgan emas. Kohiy bamisoli bir xas bo'lsa, G'izoliy bir itdir.

Navoiy va Jomiyga tish qayragan, tashlanishga qulay vaziyat poylaydigan bunday kimsalar shoir, olim, davlat odamlari orasida oz emasdi. Jomiy Samarqandda bo'lgan paytida bir necha ulamolar uni kofir deb e'lon qilish talabini o'rtaga

⁶⁸ Samarqandiy Davlatshoh. Nuriddin Abdurahmon Jomiy: [Buyuk alloma haqida] G`Forschadan B.Ahmedov tarjimasi G`G`Muloqot.-1999.-№4.-B.32.

tashlashgan. Asarlaridagi ba'zi tushunchalarni ilib olib, Jomiyni kimlardir shia mazhabiga yon berishda, shialik vakillari uni o'z mazhablarining dushmani deya tanitishga urinishgan. Lekin Jomiyning panjasiga panja urish, Jomiyni taslim aylash – bu hazilakam ish bo'lmagan. Ig'vo tashabbuskorlariga shoirning she'riy javobi mana bunday edi:

Ey mug'bachai dahr, bideh jomi mayam,
K-omad zi nizoi sheavu suny qayam.
Guyand, ki Jomiyo, chi mazhab dori?
Sad shukr, ki sagi sunniyu xari shei nayam⁶⁹.

Mazmuni: Ey dahr mug'bachasi, jomi mayimni uzatgil. SHiavu sunniy janjalidan bezor bo'ldim. Agar “Jomiy, sen qaysi mazhabdasan?” deb so'rasalar, ayturman: “YUz shukrki, sunniy iti, shianing eshagi emasman”⁷⁰. SHoir 1472 yilda Hijozga safar qilganida “Silsilat uz-zahab” dostonidagi ba'zi baytlarni dastak qilib, Bag'doddagi muhtasham bir madrasada o'tkazilgan yig'inda uni savol-so'roqqa tutadilar. Biroq hech nima natijaga erisholmaydilar. “Nogahon meni rafzga (shiaga) nisbat bermasinlar deya Xuroson sunniylaridan qo'rqardim. Lekin Bag'dodda ravofizning jafosiga yo'liqishni qayondan bilibmiz”, degan ekan o'shanda Jomiy. Lekin bundan-da qabih va dahshatli hodisalar bo'lishi Mavlononing tushiga ham kirmagandir.

Jomiy 1492 yil noyabr oyida 78 yoshida hayotdan ko'z yumadi. Bunday ulug' va betimsol zotlarning vafoti – hayotdagi eng og'ir ayriliq, ulkan yo'qotishdir. Jomiy singari shaxslarning qabriga jasad bilan birga boshqa hech qachon topib, hech vaqt qaytarib bo'lmas ma'no va tafakkur maxzani ham dafn etiladi. Ularning hayotdagi o'rni ham, ma'naviy mavqei ham o'lgan kunidan boshlab g'oyatda aniq bilinadi. CHunki ular etgan tafakkur yuksakligiga o'zga birov etolmaydi, ular qilgan ishni ayni tarzda boshqa birov eplolmaydi. Hirot Hirot bo'lib Jomiynikiday buyuk hijron

⁶⁹ Norqulov N. Abdurahmon Jomiy: 28-dars G`G`Ma'rifat.-1996.-18 may.

⁷⁰ Norqulov N. Abdurahmon Jomiy: 28-dars G`G`Ma'rifat.-1996.-18 may.

ma'rakasini kam ko'rgan bo'lsa kerak. Alisher Navoiyning yozishicha, Xurosonu Hirot ahli butun yil mobaynida motam tutadi. So'ng yil oshi beriladi. Bu ma'rakaga ham Husayn Boyqaro bosh bo'lib, uni e'zozu ehtirom ila o'tkazadi. Qabr boshida hashamatli maqbara qurilib, maxsus xodimlar tayinlanadi. 1510 yil Ismoil Safaviy qo'shinlari Hirotga bostirib kirishadi. Bosqin nishonlaridan biri Hazrati Jomiy qabri edi. "Ismoil Safaviyning ulug' shoir Mavlono Abdurahmon Jomiyga nisbatan ko'rsatgan behurmatligini, – deb yozadi akademik shoir G'afur G'ulom, – adabiyot tarixi hali ham unutmaydi... SHoh Ismoil: "Agar Hirot mening qo'limga kirsa, Jomiyni tiriklayin tutolsam, o'tda kuydiraman, o'lgan bo'lsa go'ridan chiqarib, ustuxonlarini kuydiraman"⁷¹, – degan edi. Ismoilning bu qasamidan hirotliklar xabardor edi. Safaviy Hirotni egallamasdan burun Jomiyning o'g'li Ziyovuddin YUsuf boshliq bir necha muxlislari Jomiyni va ustozi Sa'diddin Koshg'ariyning so'ngaklarini go'rdan qazib chiqarib, dushman qo'li etmaydigan xoliroq bir joyga eltib, yashirinch, vaqtinch ko'mgan edilar⁷²". Jasad topilmasa ham shoir maqbarasiga baribir o't qo'yilgandi. Bu voqeaga shohid Zayniddin Vosifiyning yozishicha, Safaviy askarlari boshchiligidagi qariyb o'n ming kishi mozor tomon yurishadi. O'sha atrofdan qancha taxta, eshik, kursi, o'tin topgan bo'lsalar, barini Jomiy qabri ustiga tashlab, so'ng yoqib yuboradilar. Bu vahshiylikni izohlashga hojat yo'q, albatta. Biroq bir qator og'riqli savollarga javob toping keladi. Bu dunyoda o'zi qanday yashash kerak? Nega buyuk SHaxslarning qismati kulfat, g'am-g'ussa bilan limmo-lim to'la? Odam Atodan boshlab payg'ambarlar va din ulug'larining boshlariga kelgan falokatlarni xotirlang: Hazrati Odam jannat ne'matlaridan mahrum etilgan; Ibrohim Xalilullohga o'g'lining boshini kesish amr qilingan; YA'qub alayhissalom o'g'lidan ajralib achchiq-achchiq ko'z yosh to'kkan; Hazrati YUsuf quduq ichida balolarga giriftor bo'lgan; Muhammad alayhissalomning oyoqlari Toifda qonga belanib, Uhud kuni tishlari sindirilgan; Abu Bakr zaharlab o'ldirilgan;

⁷¹ Jomiy A. Men jonimni beraman... Shohbaytlar G`K.Qahhorova tarjimai G`G`Toshkent oqshomi. -1994.-4 noyab.

⁷² Jomiy A. Yusuf va Zulayho G`Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O`zbekiston KP MK nashr., 1983.-112 b.

Umar shahid etilgan; Qur'oni karimni jamlagan Usmon tolei ham shunday bo'lgan; Hazrati Ali qilich zarbidan o'lgan; Hasan zaharlanib, Husaynning boshi kesilgan... Nechun bunday? Olloh haqiqatda ham sevgan bandalariga qayg'u va jafoni ravo ko'radimi? Mutasavviflarga ko'ra, "Olloh so'ngsiz lutf sohibi bo'lganligi bois, yomonlik undan emas, ashyodan yuzaga keladi. Inoyat Ollohning insonlarni yomonlikdan muhofaza etishdagi lutfidir. Bizni yaxshilik va mukammallikka yo'naltiradigan-bu yomonlikning muvjudligi. Mavlono Jaloliddin Rumiy muammoni yanada oydinlashtirib, butun mas'uliyatni inson zimmasiga yuklaydi:

Olam az mo hast shud n-e mo az o'

Boda az mo mast shud n-e mo az o'.

Mazmuni: Olam bizdan paydo bo'ldi, biz undan emas.

Boda bizdan mast bo'ldi, biz undan emas⁷³.

Darhaqiqat, inson har narsa uchun o'lchov va mezondir. U o'zgartiradi, tahlil qiladi, hukm yuritadi, hakamlilik etadi, nigohdan o'tkazadi, muhofaza aylaydi. Bir-birovini e'zozlab, madh qilgan ham udir, tahqirlab, qiynagan ham u. Rang, ohang, shodlik, tanazzul va taraqqiyot, fikr va xayol, umid va umidsizlik – hammasi inson olami. Inson ma'no va mohiyatdir. Jomiy ijodiyotida rang-barang shakllarda teran yoritilgan bosh haqiqat ham xuddi shu.

Payi on rav, ki orifi ma'nist,

Mardi orif ba do'sty avlist⁷⁴.

Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodiyoti dunyoning qator mamlakatlarida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, asarlaridan namunalar G'arb va SHarqning turli tillariga tarjima qilingan. Jomiyshunoslik ayniqsa XX asrda Rossiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjonda ancha taraqqiy topgan. Bu o'rinda E.E.Bertels, A.Hikmat, A.Mirzaev, A.Nasriddinov, A.Afsahzod, M.Rajabov, A.Sattorov, A.Guliev kabi rus, eron, tojik va ozar olimlarining tadqiqotlarini eslatib o'tish mumkin. Jomiyshunoslik

⁷³ Jomiy A. Yusuf va Zulayho G'Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O'zbekiston KP MK nashr., 1983.- 112 b.

⁷⁴ Jomiy A. Shuurimda namoyonsan damo-dam G'Forsiydan h. Saidhani tarjimasi G'G'O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2004.-23 yanv.

bo'yicha O'zbekistonda ham bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Abdurahmon Jomiy ijodiyoti muhiblari taniqli olimlar P.SHamsiev, SH.SHomuhamedov, A.Hayitmetov, A.Qayumov, N.Mallaev, B.Valixo'jaev, R.Vohidov, S.G'anieva, H.Homidiy va boshqalarning maqola, risolalaridan, shuningdek, alohida ilmiy to'plamlardan yaxshi xabardordirlar, deb o'ylaymiz. O'zbek kitobxoni necha o'n yillardan buyon Jomiy adabiy merosidan saralangan lirik she'rlar, ayrim doston (ba'zilar parcha holida) va nasriy asarlarni ona tilida o'qishga muvaffaq bo'lishgan⁷⁵.

Hazrat Jomiyning ma'no duru gavharlari bilan to'lib-toshgan ijod xazinasi bizga nechog'lik qadrlil bo'lsa, uning Alisher Navoiy bilan do'stligi, ustoz-shogirdligi shu darajada e'tiborli va ehtiromlidir. Bu – xalqlar, adabiyotlar, ilm-fan, madaniyatlar tarixida nihoyatda siyrak uchraydigan hodisa. Jomiy va Navoiyga o'xshab dunyoqarashi – dunyoqarashiga, shaxsiyati – shaxsiyatiga, maslagi – maslagiga bog'lanib, ijodiyoti va mahorati o'zaro uyg'unlik kasb etgan ikki millat, ikki adabiyot vakilini tasavvurga keltirish qiyin. Asarlarida Navoiy Jomiy ta'rifida, Jomiy Navoiy madhida so'z yuritar ekan, ularning har ikkalasi ham go'yo bir tafakkur iqlimida nafas olib, bir dard va shodlik gulshanida kezib ulug' iste'dod, mislsiz badiiy ixtirolarni sharaflayotganga o'xshaydi. Navoiyning Jomiyga, Jomiyning Navoiyga qalb yaqinligi, mehr-muhabbati, ishonchi qanday bo'lgan bo'lsa, daxl etmasdan ularga xuddi o'shandoq o'rganish, bir yoqlama, mayda yoki havoyi fikr-qarashlardan qutulib, haqiqatni so'zlash lozim. Jomiy ijodiyotini o'qib-o'rganmay, Navoiy sha'niga madhiya to'qish tarixiy, hayotiy, badiiy haqiqatga qanchalik zid bo'lsa, Navoiy dahosining kuch-quvvatini his qilmay, ijodiyotining mohiyat olamiga kirib bormay Jomiyning Navoiyga ta'siri xususida mubohasa boshlash shunchalik bema'nilikdir. Biz istaymizmi, istamaymizmi, Navoiy Jomiyga, Jomiy Navoiyga behad yaqin – shaxsiyatda ham, ijodiyotda ham. Bunga iqrar bo'lish uchun fahm-farosati joyida kishiga birgina kitob – “Xamsat ul-mutahayyirin”ni o'qib, mag'zini anglashga erishmoq kifoya⁷⁶.

⁷⁵ Jomiy A. Yusuf va Zulayho G'Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O'zbekiston KP MK nashr., 1983.- 112 b.

⁷⁶ Jomiy A. Men jonimni beraman... Shohbaytlar G'K.Qahhorova tarjimasi G'G'Toshkent oqshomi.-1994.-4 noyab.

Ilm-ma'rifatli xalq kimni sevish, kimlarga ishonish, nimani ardoqlash, nimaga intilishni bilishda unchalik xato qilmaydi. Abdurahmon Jomiyning ilmiy-adabiy merosi qadim-qadimdan o'zbek xalqini qiziqtirgan, o'qib-o'rganishga ishtiyoq uyg'otib kelgan. O'n beshinchi va undan keyingi asrlarda adabiyotda nom qozongan biror bir shoirimiz yo'qki, Jomiy she'riyat maktabidan saboq olmagan bo'lsin. Bu – to'xtab qolmaydigan jarayon. Bu – mahdudlik, yakravlik, har turli tovlamachilikdan hamisha g'olib chiqadigan intilish. Xullas, Hazrat Jomiyning “Jahonda kitobdin yaxshi yor bo'lmas”, degan gaplari yana bir karra tasdig'ini topar, deb umid qilamiz.

2.3 Abdurahmon Jomiy merosini ta'lim-tarbiyaviy jarayoni qullash uslubiyatlari

Ilmu urfon peshvosi hujrada yupungina kiyingan bir mo'ysafid va madrasa talabalari libosidagi ikki yigitcha o'tiribdi. Ular kimnidir zoriqib kutishmoqda. Shu payt xonaga kavush-maxsi kiygan, egnida yaxtak-ko'ylak, bo'z avra-astarli chakmon, qo'lida tasbeh ushlagan 45-50 yoshlar chamasidagi uy egasi kirib keldi.

Salom-alikdan so'ng to'rdagi ko'rpachaga o'tirdi-da:

- Xo'sh taqdir, Sizni qanday yumush bizning huzurimizga yetaklab keldi, - so'radi haligi kishi mo'ysafiddan.

- Hazratim, men bir bechora kosibman, hirotning Govushkon mahallasida istiqomat qilurman. Devon xizmatkorlaridan biri o'z hammomining suvini mening xonam orqasidan o'tkazib qo'ygan. Devor zax tortib, nurash xavfi bor, xonam qulasa, men uni qayta qura olmayman. Sohib mansabga aytsangizu hammom suvini boshqa yoqdan o'tkazsa, - debdi u yalingan bir ohangda.

- Sizlarning ne arzingiz bor? - Yigitlarga murojaat qildi uy egasi⁷⁷.

- Biz Mashhaddanmiz. Nizomiya madrasasida tahsil olurmiz. Bir necha kundir kim ikkovimizning maoshimiz tugadi. Sizdan najot so'rab keldik, pirim, - ta'zim qildi mullabachchalardan biri.

⁷⁷ Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.

Qo`lidagi tasbeh donalarni birma-bir sanab o`tirgan uy egasi bir oz hayol surib turdi-da dedi⁷⁸:

- Usta Mir Maqsud, men shu bugunoq Amir Nizomidin Alisher Navoiyga noma biturman. O`sha sohib-mansab Sizga zarar yetkazmaydi. Sizlarga bo`lsa, - dedi u yigitlarga murojaat qilib, - Ulug` Amir shu bugundan e'tiboran vahf mulki (machitga qarashli yer, mulk va imoratlardan olinadigan daromad) hisobidan har oyga, albatta maosh tayinlaydilar.

Hazratning har bir aytgan gaplari albatta, amalga oshajagani bilgan mehmonlar ta'zim-tavozelar-la rahmat aytib, hujradan chiqib ketishdi.

Ulug` bobomiz Navoiy hurmat qilgan, bu baobro`, oddiy xalq, ilm toliblariga g'amxo'r shaxs kim? Bu buyuk zot Sharqning ulkan shoiri va mutafakkiri, beva-bechoralarning pushti-panohi, ilm-adab ahlining peshvosi, Navoiyning do`sti, maslakdoshi, ustod Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad - Jomiydir⁷⁹.

Bo`lajak alloma Abdurahmon 1414 yili Jom shahrining Xarjurd mahallasida ma'rifat sohibi Ahmad Ibni Muhammad Dashtiy oilasida dunyoga keladi. Yosh Abdurahmon oilasi hirotga ko`chib keladi va u Nizomiya madrasasida tahsil ko`radi. Bu yerda u Xojaali Samarqandiy, Said Sharif Jurjoniy, Mavlono Shahobiddin Muhammad, Mavlono Sa'diddin Taftazoniy singari olim va mudarrislardan ilm o`rganadi. Jomiy madrasaga kelganida ko`p kitoblarni o`qib chiqqandi. Abdurahmonning ihtidori shu darajaga yetadiki, tez orada ayrim ustozlari va mudarrislar bilan bimalol bahs yuritadigan bo`ladi. Shuning uchun uni hirotidagi ta'lim qoniqtirmay qoladi va o`qishni davom ettirish uchun Samarqandga jo`naydi.

Jomiy Samarqandda qozizoda Rumiy tarbiyasini oladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qozizoda shogirdining ba'zi ilmiy munozaralardagi e'tirozlarini mamnuniyat bilan qabul qilgan, uning ilmiy kuchiga tahsinlar o`qigan. Chunonchi, atoqli olim Mavlono Fathulloi Tabriziy: "Ulug`bek madrasasi bitgach, qozizoda

⁷⁸ Jomiy A. Yusuf va Zulayho G`Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O`zbekiston KP MK nashr., 1983.- 112 b.

⁷⁹ Jomiy A. Bahoriston.-T.: Yozuvchi, 1997.-111 b.

unga muarris etib tayinlandi. Madrasaning ochilishiga bag`ishlangan tantanada so`zlagan nutqida yig`ilganlarga qarata Samarqand paydo bo`lganidan beri, biron bir yigit ilmiy quvvat va salohiyatda Jomiy singari martabaga yetisha olmadi, deb xitob qildi"⁸⁰, - deb yozib qoldirgan.

Jomiy Xurosonda temuriylardan Shohrux, Abulqosim Bobur, Abu Said va Husayn Boyqaro podshohligi davrida yashadi. Xurosonda hirot taxtiga Temuriy Sulton Husayn Boyqaro o`tirgandan so`ng Jomiyning mamlakatdagi mavqei juda ortadi, chunki Sulton Husayn va uning ko`p avlodlari o`zlarini unga murid, deb a'lon qilganlar.

Jomiy 1472 yili hajga boradi. Bu safari vaqtida Nishopur, Sabzavor, Bastom, Dohmon, hamadon, Bag`dod, Damashq, Tabriz kabi bir qancha shaharlarda bo`ladi.

Jomiy katta yer-mulk egasi bo`lgan. Lekin shunga qaramasdan kamtarona hayot kechirgan. Buni quyidagi lavhada ko`rish mumkin: hirot shahri ilm-adab ahlining navbatdagi mushoira oqshomi Jomiy hovlisida o`tadigan bo`libdi. Tong sahardan boshlab, turli shahar va qishloqlardan shoirlar ustod xonadoniga kela boshlabdi. Eshik oldida yupungina kiyinib olgan, jikkakkina nuroniy mo`ysafid yelib-yugurib xizmat qilarkan: u goh odamlarni ta'zim-tavoze bilan peshvoz olib, uyga taklif qilar, goh otda kelgan adiblarni suyab tushirib, armug`onini oqilxonaga eltib bog`lar ekan. Shu payt ko`pdan beri ustod suhbatida bo`lishni orzu qilib yurgan viloyat hokimlaridan bo`lmish yosh shahzoda, havaskor shoir ham ko`rinibdi. Haligi xizmatkor mo`ysafid tezlik bilan hokimni otdan suyab tushirib, otini og`ilxonaga bog`lab qaytibdi. Hokimni mehmonlar huzuriga eltib, to`rga o`tqazibdi-da, o`zi yana poygakka borib cho`kka tushibdi.

- Janoblar, hamma kelib bo`ldi, shekilli, ul ulug` zot qani? - so`rabdi shahzoda⁸¹.

Mehmonlardan biri poygakda o`tirgan boyagi xizmatkorga ishora qilibdi. Haligi xizmatkor Abdurahmon Jomiy ekanini endi bilgan hokim xijolat tortganidan o`rnidan

⁸⁰ Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.

⁸¹ Jomiy A. Bahoriston.-T.: Yozuvchi, 1997.-111 b.

sapchib turib, tashqariga otiladigan bo`libdi. Jomiy uni o`z o`rniga o`tqazib, she'riyat bahsini boshlab yuboribdi.

Abdurahmon Jomiy shogirdlari, xukmronlardan keladigan in'om-ehsonlarni beva-bechoralar, yetim yesirlarga ulashib bergan. Umrining oxirigacha hirotida yashab, 1492 yili vafot etadi.

Abdurahmon Jomiy merosi

Jomiy hikmatlaridan
Kitobdan yaxshi do`st yo`q jahonda,
G`amxo`ring bo`lgan u hamli zamonda.
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,
Joningga yuz rohat beradi takror.

* * *

Ilming bo`lsa qochma amaldan,
Ilming qimmatini amali bilan.

* * *

Ilm - barcha hunarning toji - bebaho,
Ilm - hamma qulfning kaliti - a'lo.

* * *

Senga ulug`lik lozim bor joyda,
Otang obro`yi bermaydi foyda.

* * *

Ilm olishga belingni chog`la,
Boshqa har ishdan qo`lingni bog`la.
Ustod, muallimsiz qolsa bir zamon,
Nodonlikdan qora bo`lardi jahon

* * *

Eng yaxshi odam shu - kimdan xalqiga,
Qandaydir naf tegar har kunu har dam.
Do`stga agar qo`shilsa do`st-yor,
Orzu og`ochi bo`lur hosildor.
har kim bilan oshnolik istama,
har oshnodan ro`shnolik istama.
Abdurahmon Jomiy ijodiy faoliyatini⁸²

⁸² Abdulqodirov A. Tavhid-kamolot manzili: [Jomiy va Navoiy tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligi haqida] G`G`Guliston.-1998.-№2.-B.60.

Bilasizmi?

1. Abdurahmon Jomiy qachon va qaerda tavallud topgan?

(Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad-Jomiy 1414 yili Jom shahrining Xarju mahallasida tavallud topgan).

2. "Samarqand paydo bo'lgandan beri biron bir yigit ilmiy quvvat va salohiyatda Jomiy singari martabaga yetisha olmadi" degan xitob kimga tegishli?

(Jomiyning ustози qozizoda Rumiy Ulug'bek madrasasini ochilishiga bag'ishlangan tantanada bu so'zlarni aytgan).

3. Jomiy asarlari qaysi fan sohalariga oid?

(Falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tasavvuf, san'at, nazm va nasrning turli janrlariga oid).

4. Jomiyning "Xaft avrang" asari necha dostonidan iborat va ular qaysilar?

("Xaft avrang" asari 7 dostonidan iborat bo'lib, ular "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Sibhat ul-abror", "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salomon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlaridir).

5. Adibning musiqaga oid qanday asarlarini bilasiz?

(Uning "Nahshi Mulla" va "Risolai musiqa" asarlari bizga yetib kelgan).

6. Abdurahmon Jomiyning falsafiy-irfoqiy asarlari nechta va ular qaysilar?

(Yozuvchining "Nahd an-nusus fi sharhi naqsh al-fusus", "Sharhi ruboiyot", "Ashi'at ul-lama'ot", "Sharhi bayti Amir Xusrav", "Sharhi baytayni Masnaviy", "Sharhi qasidayi Toyiyya", "Sharhi miftoq ul-hayb", "Sharhi fusus ul-hakam" kabi falsafiy-irfoniy sharhlari, "Lavoeh", "Durrat ul-foxira", "Risalat fil-vujud" kabi mustaqil ilmiy-nazariy asarlarini yozgan va ular 18 tani tashkil qiladi).

7. "Bahoriston" tazkirasida qanday ma'lumotlarni yoritadi⁸³?

(Yozuvchining "Bahoriston" tazkirasida fors-tojik adabiyotining bir qancha namoyandalari ijodiy faoliyati va Alisher Navoiy haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, u sakkiz ravzadan tashkil topgan).

⁸³ Abdulqodirov A. Tavhid-kamolot manzili: [Jomiy va Navoiy tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligi haqida] G'G'Guliston.-1998.-№2.-B.60.

8. Yozuvchining qaysi asarlari qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoga bag`ishlangan?

(Uning "Lujjatul-asror", "Ashiat ul-lamoat" diniy-falsafiy asari Ibn Sinoga bag`ishlangan).

9. "Yusuf va Zulayho" dostonini birinchi bo`lib kim o`zbek tiliga tarjima qilgan?

(XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy Jomiyning "Yusuf va Zulayho" sini o`zbek tiliga tarjima qilgan).

"Ibn al-Arabiy va Abdurahmon Jomiy" mavzusida kitobxonlar konferensiyasini o`tkazish ssenariysi

Mavzu bo`yicha kitobxonlar konferensiyasini o`tkazish uchun bir oy oldin tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Konferensiya uchun joy, ya'ni qiroatxona tanlanadi va mavzu bo`yicha adabiyotlar ko`rgazmasi tashkil qilinadi.

Konferensiyaga adabiyotshunoslar, faylasuflar, olimlar, jomiyshunos olimlar, pedagoglar, aspirant va tadqiqotchilarni taklif qilish mumkin. Konferensiyani olib boruvchi quyidagi so`zlar bilan ochishi mumkin:

Assalomu alaykum, konferensiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar! Movarounnahr va Xuroson zaminida yashab, fors-tojik va o`zbek mumtoz adabiyotiga ulkan hissa qo`shgan buyuk olim, shoir Nuriddin Abulbarakot ibn Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Jomiyning Sharq adabiyotidagi o`rni, olamshumul shuhrati, she'riyati, uslubi, ilmiy asarlari barchamizga juda yaxshi ma'lum. Bugun biz Mavlono Jomiyning falsafiy-irfoniy asarlari va uning Ibn al-arabiy ta'limotiga kim orqali va qanday qilib yo`l topgani haqida so`zlashishni joiz deb topdik va birinchi so`zni falsafa fanlari nomzodiga beramiz.

Olim: Assalomu alaykum, xurmatli konferensiya qatnashchilari. Mavlono Abdurahmon Jomiyning falsafiy-irfoniy qarashlarini shakllantirgan manbalarni o`rganish, unga Ibn al-Arabiyning ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Jomiyning dunyoqarashida orif, faylasuf, mutakallim, Naqshbandiy sufiy va hanafiy fahih qarashlari bir-biriga singib ketib, uyg`un bir holat kasb etgan. Bu XV asrning naqshbandiyona muhitida juda kam uchraydigan holat. Xuddi shunday holatni vahdat

al-vujud nazariyasining asoschisi, "Shayxi kabir" nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin ibn al-Arabiy (1165-1240) ta'limotida ham ko'rish mumkin. Agar Jomiyga besh yoshligidayoh otasi tufayli Ibn al-Arabiy asarlarining eng yaxshi sharhlovchilaridan biri bo'lgan Xoja Muhammad Porso diydorini ko'rish nasib etib, uning nazariga tushganini va keyinchalik o'zi e'tirof etganidek, bu muloqotdan bir umrga tatiydigan ajoyib taassurot qolganini nazarda tutsak, Jomiyi ilk bor Ibn al-Arabiy ta'limoti bilan tanishtirgan Xoja Porso va uning "Fasl ul-xitob", "Sharhi fusus" kabi asarlari bo'lib chiqadi.

Olib boruvchi: Rahmat domla. Balki o'tirganlarning ko'pchiligi bundan xabardor, balki bilmas, Abdurahmon Jomiy asarlarining ko'pchiligini falsafiy-irfoniy mazmundagi asarlarni tashkil etadi. Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari asarlariga sharhlar, Ibn al-Arabiy ta'limoti

doirasida mustaqil ilmiy-nazariy asarlari haqida keyingi mehmonimizni, jomiyshunos olimni taklif etamiz.

Jomiyshunos olim: Mavlono Abdurahmon Jomiy nahshbandiya tarihati mavqeida bo'la turib vahdat al-vujud ta'limotini naqshbandiylikka olib kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bunga erishish uchun, asosan, quyidagi ikki yo'lni tanladi:

- Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari asarlariga sharhlar yozish;
- Ibn al-Arabiy ta'limoti doirasida mustaqil ilmiy-nazariy asarlar yaratish⁸⁴.

Davr tahozosiga ko'ra, o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladigan bu ishga Jomiy olimona nazokat va farosat bilan kirishib, 1459-1492 yillar davomida "Nahd an-nusus fi sharhi naqsh al-fusus", "Sharqi ruboiyot", "Sharhi miftoq ul-hayb", "Risolai suxanoni Xoja Porso", "Sharhi fusus ul-hikam", "Ashi'at ul-lama'ot" va boshqa ko'plab mustaqil ilmiy-nazariy asarlar yozgan. Jomiy "Nahd an-nusus fi sharhi naqsh al-fusus"ni yozib tugatish vaqtidan (1459) taxminan 10 yil oldinroq Ibn al-Arabiy ta'limotini o'rganishga kirishgan, deb taxmin qilinsa, unda u 43 yillik umrini asosan,

⁸⁴ Abdullaev A. Ilohiy do'stlik: (Navoiy va Jomiy) G'Muloqot.-2003.-№3.-B.37-40.

Ibn al-Arabiy qarashlarini o`rganish, tadhiq va targ`ib etishga bag`ishlagan, degan xulosaga kelish mumkin. Uning 10 ta falsafiy-irfoniy asaridan 2 tasi bevosita Ibn al-Arabiy kitoblariga, qogan 8 tasi esa uning ta'limoti asosida bitilgan sharqlar hisoblanadi.

Olib boruvchi: Mana bugun Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" tazkirasi yoki "Yusuf va Zulayho" dostoni yuzasidan emas, balki uning tasavvufiy-irfoniy asarlari va Ibn al-Arabiy ta'limotini yangicha usullar va talqinlar vositasida naqshbandiylik ta'limotiga olib kirgani va bu ikki ta'limot qorishmasidan yangi irfoniy-falsafiy qarashlar tizimini vujudga keltirgani haqida fikr-mulohazalar bilan tanishishni oldimizga maqsad qilib ho`ygan edik va bu niyatimiz amalga oshdi deb o`ylaymiz.

"Aql va tafakkur kuchi" mavzusida kitob ko`rgazmasi tayyorlashning taxminiy rejasi

Ko`rgazma 3 yoki 4 bo`limdan iborat bo`lishi mumkin.

1. "Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy-faylasuf olim va buyuk so`z san'atkori".

Bu bo`limga Abdurahmon Jomiyning fors-tojik tilida yozgan falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslikka, nazm va nasrning turli janrlariga oid asarlari haqidagi adabiyotlar qo`yiladi.

2. "Abdurahmon Jomiy ta'lim-tarbiya haqida".

Bu bo`limga Mavlono Jomiyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari, fikr-mulohazalari va shu asarlar haqidagi adabiyotlar qo`yiladi.

3. "Ilohiy do`stlik"

Do`stga agar qo`shilsa do`st-yor,

Orzu ohochi bo`lur hosildor.

Har kim bilan oshnolik istama,

Har oshnodan ro`shnolik istama.

A.Jomiy

Bu bo`limda Sharqning ikki buyuk mutafakkir olimi Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning do`stligi, ustoz-shogird munosabatlari haqidagi adabiyotlar o`z aksini topadi.

Xulosa

Jomiydan ulkan va rang-barang adabiy hamda ilmiy meros qolgan. Ba'zi olimlar Jomiy asarlarining umumiy soni 100 ga yaqin deb taxmin qiladilar. Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin"da uning 38 asarini nomma-nom sanab ko'rsatadi. Jomiy asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning har xil janrlariga oid. Jomiy o'z asarlarini fors-tojik tilida yozgan, arab tilini ham yaxshi bilgan. Uning ijodiy faoliyati ko'p qirrali bo'lsa ham u Sharq xalqlari madaniyati tarixida ko'proq genial shoir va mutafakkir-olim sifatida tanilgan. Bu jihatdan uning epik va lirik merosi hayot diqqatga sazovordir. So'nggi asr adabiyotshunoslari haqli ravishda uni fors-tojik adabiyotining ilk taraqqiyot davridagi (X-XV asrlar) buyuk mutafakkir-ijodkor deb ataydilar.

Adabiyotshunos va tilshunos olim sifatida ham Jomiy xizmati ulkandir. U o'zining "Bahoriston" tazkirasida fors-tojik adabiyotining bir qancha namoyandalari va Navoiy haqida himmatli ma'lumotlar beradi. Uning "Risolai aruz" asari aruz haqidagi eng mukammal qo'llanmalardan biridir.

Jomiy "Nafohot ul-uns" asarini yozish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 ta mutasavvif hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 nafari ayollardir. Ushbu asarni Navoiy ma'lum bir to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jomiy faqat mashhur so'fiylar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmay, qator shoir va adiblarning hayoti va ijodiga ham to'xtaladi.

Jomiy musiqa sohasida ham katta obro'ga ega bo'lib, "Nahshi Mulla" ("Nahshi Imoma") asari muallifidir. Sharq musiqa ilmi tarixida Jomiyning "Risolai musiqa"si ham alohida o'rin tutadi. Risola kirish, ikki yirik qism - "ilmi ta'lif" va "ilmi iyho" hamda xotimadan tashkil topgan bo'lib, ular ichiga 23 faslni qamrab olgan. Jomiy o'zining musiqiy nazariy va musiqiy estetik qarashlarida Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy va Abdulqodir Marohiylarning mumtoz an'alarini davom ettirgan. Asosiy diqqatini o'sha davr amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan parda (lad) tizimlari (jins, jam, "O'n ikki maqom", sho'ba va b.) hamda usul (ritm)

masalalariga qaratgan. Jomiyning musiqaviy tafakkuri adabiy-badiiy ijodida o'z ifodasini topgan. Abudrahmon Jomiy va Alisher Navoiy umrining oxirigacha ustoz-shogird bo'lgan. Navoiy o'zining barcha asarlarini Jomiy maslahati bilan yozgan, ularning birinchi o'quvchisi ham Jomiy bo'lgan. O'z navbatida ulkan mutafakkir ayrim kitoblarini Navoiy maslahati bilan yozgan. Jumladan, qo'lyozma daftarlarda tarqoq yurgan she'rlarini devon holiga keltirishni Jomiyga Navoiy maslahat bergan.

Alisher Navoiyning "Xamsa" yozish niyatini birinchi bo'lib Jomiy qo'llab-quvvatlagan, unga yuksak baho bergan. Shuning uchun ham "Xamsa" ning har bir dostoni muqaddimasida Navoiy boshqa xamsanavislar qatorida Jomiyga ham alohida bob ajratib, uni daho shoir, masnaviy ustasi, mehribon ustod sifatida ta'riflaydi. Bir davrda, bir xil siyosiy-ijtimoiy va madaniy adabiy muhitda yashab ijod etgan, ustozlik va shogirdlik, murshidlik va muridlik odobini Shams Tabriziy va Mavlono Rumiydan keyin eng yuksak darajada ado etgan bu ikki siymoni bir-biridan ayri tasavvur qilish,

Jomiyning o'rganmasdan Navoiyni, Navoiyni o'rganmasdan Jomiyning anglash mumkin emasligini mantiq va tafakkur kuchi bilan idrok etgan o'zbek navoiyshunos olimlarini ayni paytda, jomiyshunos deb atash ham mumkin.

Aslida, birinchi Jomiyshunos olimning o'zi ham hazrat Alisher Navoiy hisoblanadi. Jomiydek buyuk qomusiy olim asarlarini tahlil va tadqiq etish, ularga haqqoniy, holisona baho berish, kerak bo'lganda Jomiyning shoirlik va olimlik sha'nini himoya qilish faqatgina Navoiydek zabardast shoir, mutafakkir va ulug' adabiyotshunos olim qo'lidan kelishi mumkin edi. Navoiyning Jomiyga bahishlab yozgan "Xamsat ul-mutaxayyirin" asari, shuningdek "Mahbub ul-qulub"ning "Nazm gulistonining xushnaqma qushlari zikrida" deb nomlangan 16-faslida Ajam shoirlarini asosan to'rt guruhga bo'lib, Jomiyning har uchchala guruhga mansubligini ta'kidlab o'tishi, hech qanday shak-shubhasiz, uni ilk jomiyshunos olim sifatida namoyon etadi.

Xuddi shu o'rinda hazrat Jomiyning ham birinchi navoiyshunos olim, deb atash mumkin. Zero, Jomiy o'zining "Bahoriston" va boshqa asarlarida Navoiy ijodiga yuksak baho berib, uning "o'zbek tili, o'zbek adabiyoti uchun kurashini,

uning o'z halqi madaniyatini yuksaltirish yo'lidagi barcha intilishlarini quvvatlagan". Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy do'stligi - jon do'stlik. Xalq va Vatan manfaatlari yo'lida har qanday mashaqqatga bardosh berishga qodir do'stlik. El-ulus istiqboli yo'lida xizmat qilgan bu do'stlik mohiyati xalqimizning "Elni suygan - erga do'st" maholi mazmuni bilan uyg'un.

Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib bir necha marta nashr etilgan "hofiya sharhi risolasi", "Sharqi Mullo" (yoki "Mullo Jomiy") Markaziy Osiyo va Idil (Volga) bo'yi tatarlari madrasalarida arab tili, grammatikasidan darslik sifatida o'qitilgan.

Shu munosabat bilan, Abdurahmon Jomiy ijodiga yoshlarni jalb qilish lozim. Bu ishda kutubxonalar adabiyotlar targ'ibotining kitob taqdimoti, ilmiy-amaliy konferensiya, kitobxonlar konferensiyasi, savol-javob kechalari, davra suhbatlari, bilimdonlar bellashuvi, mavzuli va munozara kechalari, uchrashuv va xotira kechalari, adabiy-badiiy sahnalashtirilgan musiqali kechalar, og'zaki jurnal, kitob ko'rgazmalari, asarlarining obzorlari va u haqidagi asarlarning turli-tuman shakl va usullaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday tadbirlar turkumini tashkil etish uchun kutubxonalarda filologlar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar, Jomiyshunoslar, san'atkorlar, jurnalistlar hamda ma'naviyat o'qituvchilarini jalb qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2012. 11-13-betlar.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2005. – 48 b.
3. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, Yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
6. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-betlar.
7. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-betlar.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-betlar.
9. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. -T.: «O'zbekiston» 2001. 70-98-betlar.
10. Karimov I.A. «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-betlar.
11. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 243-275-betlar.

12. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 285-312-betlar.
13. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 313-337-betlar.
14. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003. - 320-bet.
15. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamji-hatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
16. Karimov I.A. YOksak ma'naviyat-yingilmas kuch.. -T.: «Ma'naviyat», 2008. - 96 b.
17. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida – T.: «O'zbekiston», 2012. - 148 b.
18. Abdullaev A. Ilohiy do'stlik: (Navoiy va Jomiy) G'Muloqot.-2003.-№3.-B.37-40.
19. Abdulqodirov A. Tavhid-kamolot manzili: [Jomiy va Navoiy tavhid, ya'ni Ollohning yagonaligi haqida] G'G'Guliston.-1998.-№2.-B.60.
20. Abdurahmon Jomiy. (1414-1492): [Shoir Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad haqida] G'G'Yosh kuch.-1991.-№6.-B.25.
21. Aliqulov Q., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim tarbiya haqida.-T.,1981.-36b.
22. Vohidov R. Besh hayrat: Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning ilk uchrashuvlariga doir ayrim qaydlar G'G'Jamiyat va boshqaruv.-1998.-№3.-B.50-52.
23. Jomiy A. Shuurimda namoyonsan damo-dam G'Forsiydan h. Saidhani tarjimasi G'G'O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2004.-23 yanv.
24. Jomiy A. Yusuf va Zulayho G'Tuzuvchi va mas'ul muharrir A.Qayumov). - T.: O'zbekiston KP MK nashr., 1983.-112 b.
25. Jomiy A. Bahoriston.-T.: Yozuvchi, 1997.-111 b.
26. Jomiy A. Qazallardan.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-357 b.
27. Jomiy A. Men jonimni beraman... Shohbaytlar G'K.Qahhorova tarjimasi G'G'Toshkent oqshomi.-1994.-4 noyab.

28. Isaev A. Abdurahmon Jomiy va musiqa G`G`Xalq ta'limi.-1996.-№3.-B.81-82.
29. Norqulov N. Abdurahmon Jomiy: 28-dars G`G`Ma'rifat.-1996.-18 may.
30. Samarqandiy Davlatshoh. Nuriddin Abdurahmon Jomiy: [Buyuk alloma haqida] G`Forschadan B.Ahmedov tarjiması G`G`Muloqot.-1999.-№4.-B.32.
31. Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi.-T.,1991.- 64b.
32. Umrzoqov B. Jomiy-Xojagon tarihining yetuk vakili G`G`Sharq yulduzi.-2002.-№4.-B.143-145.
33. Xayitov Sh. Ma'rifat nuri: A.Navoiy talqinida A.Jomiy G`G` Imom al-Buxoriy saboqlari.-2003.-№2-3.-B.107.
34. Xayitoa Sh. Barkamol inson timsoli:(A.Navoiyning A.Jomiy xotirasiga bahishlab yaratilgan "Xamsatul-mutaxayyirin" asari haqida) G`G`Til va adabiyot ta'limi.-2002.-№4.-B.34-42.
35. Xolmo`minov M. Naqshbandiya piri: [Shayx Abdurahmon Jomiy haqida] G`G`Tafakkur.-2001.-№4.-B.48-52.
36. Xuseynova A. Inson borlig`ining oliy mazmuni: Abdurahmon Jomiy tavalludining 580 yilligi G`G`O`zbekiston adabiyoti va san'ati.-1994.-25 noyab.
- 37.Xuseynova A. Hammaga omonlik istab: Jomiy tavalludiga 580 yil to`ladi G`G`Saodat.-1994.-№3.-B.23.
- 38.Shomuhamedov Sh. Abdurahmon Jomiy: [hayoti va ijodi].-T., 1963.-36b.